

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI

NABIYEVA DILNOZA G‘AYRATJON QIZI

**Namanganlik qatag‘on qurboni Nuriddin Qoriyevning
hayoti va taqdiri**

mavzusidagi

Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mutaxassislik: - O‘zbekiston tarixi

Ilmiy rahbar: R.T.Shamsutdinov

tarix fanlari doktori, professor,

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan

madaniyat xodimi

Andijon – 2016 yil

MUNDARIJA

Kirish.....

I bob Prezident Islom Karimov asarlarida tarixni o'rganishga yangicha metodologik yondashuvlar

II bob "Katta terror"ning O'zbekistonda o'tkazilishi va fojiali oqibatlari

III bob Ommaviy qatag'onning Namangan viloyatidagi fojialari: Qatag'on qurboni Nuriddin Qoriyevning hayoti va taqdiri.....

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....

Ilovalar.....

Kirish

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi: Mustaqillik – ulug' ne'mat. Mustaqillik tufayli vatanimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Tarixiy jihatdan qisqa davr mobaynida milliy davlatchilikni barpo etish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida ulkan ishlar amalga oshirildi. Barcha sohalarda bo'layotgan tub o'zgarishlar tarix fani sohasini ham chetlab o'tmadi. Istiqlol tufayli o'zbek xalqining ko'p ming yillik tarixini tiklash, xolisona tadqiq etish va uni xalqqa yetkazish borasida qator ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. Mamlakat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotidagi sifat o'zgarishlariga hamohang tarzda tarixshunoslikda ham yangicha ruh va mazmundagi ilmiy tadqiqotlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Mustaqillik sharofati bilan biz tariximizni, haqqoniy tariximizni yaratish imkoniga ega bo'ldik. Prezidentimiz I. A. Karimov bizning o'tmishimiz xoh fojiali, og'ir achinarli, hasratli bo'lsin, xoh qahramonona, shonli bo'lsin, u bizning tariximizdir, bizning o'tmishimizdir, shu bois uni ko'z qorachig'iday asrashimiz kerakligini takror-takror uqtirmoqda. Tariximiz o'tmishimiz, bugunimiz va kelajagimizni bog'lab turuvchi muhim xalqa, ko'prikdir. Shu bois Vatan tarixi milliy istiqlol mafkurasi, milliy g'oyaning tamal toshi hamdir. Ma'naviyat va tarixiy xotira tushunchalarining o'zaro bog'loqligini ko'rsatib, I. Karimov millatni asramoq uchun uning chinakam, haqiqiy tarixini yaratish, o'rganish va avaylab-asrash lozim deb ko'rsatdi. 1996-yil 26-iyunda Prezidentimizning bir guruh tarixchi olimlar, jurnalistlar, ijodiy xodimlar bilan uchrashuvi va undagi suhbat, muloqot o'zbek tarixnavisligi va tarixshunosligida katta voqea bo'ldi. Mazkur suhbatda davlatimiz rahbari favqulodda boy hamda betakror tariximizning uzoq va yaqin davrlari, bosqichlari, dolzarb mavzulari, muammolari haqida konseptual harakterdagi fikr-g'oyalarini bildirdi. Bu suhbat mazmuni "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli risolada o'z aksini topdi. Yetakchi tarixchilar bilan bo'lgan uchrashuvda I.A.Karimov Sovet davri tarixini ta'riflab, men sovetlar davrida yozilgan tarixni tarix deb hisoblamayman, deb aytgani tarixchilar uchun ibrat

bo'ldi. Prezidentimiz tarixchi olimlarni haqqoniy tarixni tiklash, xalqni va millatni mana shu tarix bilan qurollantirishga da'vat etdi. Tariximizning ayanchli, hasratli, fojeali sahifalarining chuqur va atroflicha o'rganishida ham bor haqiqatni, achchiq haqiqatni aks ettirish kerakligi ta'kidlandi.

Tariximizning mislsiz qayg'uli, alamli va armonli sahifalaridan biri bu Sovetlarning O'zbekistonda olib borgan qatag'on siyosati va uning fojeali oqibatlaridir. Mudhish Oktyabr to'ntarishidan boshlab to SSSR parchalanib ketgunga qadar siyosiy qatag'on sovet jamiyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib keldi. Biroq bu fojea vatanimiz tarixida, ayniqsa 30-40-yillardagi tariximizda mutlaqo yoritilmagan edi, bu davr bamisoli ustiga kafan tashlangan, kafanga o'ralgan holatda, o'rganish uchun yopiq mavzu bo'lib qolgandi. Yurtboshimiz hali mustaqillikka erishmasdan avvalroq O'zbekistondagi siyosiy qatag'on va uning qanday kechgani, fojeali oqibatlarini ochib berish, begunoh qatag'on qurbonlarini oqlash choralarini ko'rish tashabbusi bilan chiqdi. Qatag'on qurbonlarini o'rganish, ularning nomlarini abadiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 12-mayda e'lon qilgan farmoyishi va 22-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “ Vatan va xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoiylar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida” qabul qilgan qarorlaridan so'ng keng yo'lga qo'yildi. Qarorda sovet tuzumi davrida qatag'on qurbonlari bo'lgan minglab fidoi insonlar, shahid ketgan ziyolilar xotirasini abadiylashtirish, hayoti va faoliyatini, boy ilmiy-ijodiy merosini o'rganish zarurligi alohida ko'rsatib o'tildi. 1999-yil 21-sentabrda “Shahidlar xotirasi” hayriya jamg'armasi tuzildi. Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan 2000-yil 12-mayda Toshkent shahridagi Yunusobod mavzesida – Bo'zsuv bo'yida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmui ochildi. U mustabid sovet rejimi davrida qatag'on qilingan shahidlar xotirasiga bag'ishlab o'rnatilgan bo'lib, millat fidoiylarining aksariyati shu yerda otib tashlangan edi. Prezidentimizning “Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida”gi farmoyishi ham qatag'on qurbonlari taqdirini o'rganish uchun katta imkoniyatlar ufqini ochib berdi. 2001-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida har yili 31-avgust –

Mustaqillik e'lon qilingan kun qatag'on qurbonlari xotirasi kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi. 2002-yil 31-avgustda mamlakatimiz poytaxti Toshkentdagi "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuidagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi" bunyod etildi. Ushbu tadbirlar natijasi o'laroq yurtimizda sovetlarning mash'um siyosati tufayli bevaqt hayotdan ko'z yumgan qatag'on qurbonlari, millat fidoiylari, xalq jonkuyarlarining xotirasi qayta tiklandi va nomlari abadiylashtirildi.

Mustaqillik sharofati bilan tarix fani va uning sohalariga doir bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, Andijon davlat universiteti Tarix fakultetining professor o'qituvchilari hamda talabalari ham tarix fani sohalarini bo'yicha tadqiqot ishlari olib bormoqdalar. Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi shundaki, sovetlarning qatag'on siyosatini qanday kechganini talqin etish, buni birgina namanganlik qatag'on qurboni Nuriddin Qoriyev misolida ochib berish, talabaning o'zi yashab turgan hududidagi qatag'on qurbonlarini o'rganishi, ularning xotirasini tiklab, nomini abadiylashtirishdir. Qatag'on qurbonining hayoti va faoliyati jumladan, ijtimoiy kelib chiqishi, qaysi siyosiy tashkilot va guruhga mansubligi, qanday ijtimoiy-siyosiy harakatlarda ishtirok etganligi, qanday sohta ayblovlar bilan qatag'on qurboni bo'lganligini yoritishdir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari: tadqiqot uchun tanlangan mavzuning mohiyati va dolzarbligi, davr tarixining o'rganilganlik darajasidan kelib chiqib, yangi arxiv hujjatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish bosh vazifa qilib olingan va tadqiqotda quyidagi muammolarni hal etish vazifalari qo'yilgan:

- Namangan viloyati tumanlari va qishloqlari misolida amalga oshirilgan jazo va qatag'onlik siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini talqin etish;

-Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan qatag'on siyosatiga haqqoniy baho bergan, uning barcha salbiy jihatlariga tanqidiy yondashgan maqola, o'quv qo'llanma va monografiyalarni tarixshunoslik jihatidan tahlil qilish, chop etilgan ilmiy tadqiqot asarlarini o'rganish va tizimga keltirish;

-O'rganilgan adabiyotlar va manbalarni nazariy jihatdan umumlashtirgan holda, bugungi kunda respublikamizda qatag'on siyosatini o'rganish borasida

qilinayotgan ishlarga ma'lum bir hissa qo'shish;

-Qatag'on qurbonlari haqidagi ma'lumotlarni ilmiy iste'molga kiritish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi: Ushbu tadqiqot ishida Namangan viloyatida amalga oshirilgan qatag'on siyosati tarixini o'rganishda oshkoraviylik, xolisiylik nuqtai-nazaridan kelib chiqib, tamoman yangicha metodologiya asosida tadqiq qilindi. Tadqiqotda milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasi ruhi va talablari asosida O'zbekistonda Sovetlar davrida amalga oshirilgan mudhish qatag'on siyosati tarixiga doir ilmiy asarlar tarixshunoslik nuqtai nazaridan alohida mavzu sifatida o'rganildi va nazariy xulosalar chiqarildi. Xususan, qatag'on qurboni Nuriddin Qoriyevning hayoti, faoliyati, taqdiri yoritib berildi. Tadqiqot asosan arxiv manbalari asosida yoritildi. Bu esa tadqiqot qimmatini oshirib, ilmiy yangililik darajasini yanada ko'tardi. Ushbu arxiv ma'lumotlari Namangan viloyati davlat arxividan, Namangan viloyati o'lkashunoslik mezeyi fondidan, shuningdek, Namangan viloyati Xotira muzeyining fondida saqlanayotgan hujjatlar asosida to'plandi. Ruscha ma'lumotlar tarjima qilindi, so'ng yig'ilgan jami ma'lumotlar tarixiylik, xolislik jihatidan o'rganilib, solishtirilib, taqqoslanib yaxlit holatga keltirildi.

Ishning amaliy ahamiyati: O'zbekistonda qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish borasida davlat va hukumatning olib borgan hayrli ishlarini sharhlash asosida qatag'on qurbonlari yaqinlarining bu ishlarga munosabatini ta'kidlash hamda o'rganilgan tadqiqot natijalarini tarix fani sohasiga yangilik sifatida kiritish, o'quv jarayonlarida, ayniqsa o'lkashunoslik darslarida sovetlarning mudhish qatag'on siyosati dahshatlari va fojialarini ochib berishda tegishli hududlardagi mana shunday o'rganilgan qatag'on qurbonlari misolida yoritib berishdan iborat.

Mavzuning o'rganilish darajasi: Ushbu davrgacha mamlakatimizda qatag'on qurbonlarini o'rganish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa yuqorida keltirgan prezident va hukumat qarorlaridan so'ng bu ishlar yanada jadallashdi. Xususan, 2001-yil 21-sentabrda Andijonda ishga tushgan "Meros" ilmiy-amaliy ekspeditsiya hayriya jamg'armasi hamda ushbu jamg'armaga

rahbarlik qilib kelayotgan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, tariz fanlari doktori, professor Rustambek Temirovich Shamsutdinov rahbarligida bir guruh olimlar sovetlar davrida amalga oshirilgan kollektivlashtirish, quloqlashtirish, surgun va ayniqsa, 1937-1938-yillarda qatag'on qilinganlarni nomma-nom aniqlash, ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirish hamda to'plangan manba va arxiv hujjatlarini kitob holida chop etish bilan shug'ullanmoqda. Bu tadqiqotlar natijasida ko'plab qimmatli kitoblar ilmiy iste'molga kirdi: Shamsutdinov R.T: Istiqlol yo'lida shahid ketganlar. T. "Sharq", 2001; Shamsutdinov R.T: O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari. T. "Sharq", 2001; Shamsutdinov R.T: Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun (O'rta Osiyo Respublikalari misolida). T. "Sharq", 2003; Shamsutdinov R.T, Mamajonov A. Shimoliy Kavkaz surgunidagi yurtdoshlar qismati. T. "Sharq", 2005; Shamsutdinov R., Karimov Sh. O'zbekiston tarixidan materiallar. Uchinchi kitob. Andijon. "Andijon – Nashriyot - Matbaa", 2004. – 348 – 455, 582 – 607 betlar; Shamsutdinov R.T., Karimov N.F., Yusupov E.Y. Repressiya: 1937-1938 godы. Dokumenti i material. Vipusk !. – T. «Sharq». 2005; R.T.Shamsutdinov, Yusupov E, Hoshimov S, Do'smatov E. Tragediya sredneaziatskix kishlak v godi bolshogo terrora. Dokumenti i material. Andijan, 2007.; Vatanimiz o'tmishidan. Andijon, 2007.; Tarixning hasratli sahifalari. Toshkent: Sharq, 2006; Tragediya sredneaziatskogo kishlaka: kollektivizatsiya, raskulachivanie, ssilki. 1929-1955 gg. Karimov N.F., Shamsutdinov R.T. Dokumenti i material 3 tomov; R.Shamsutdinov, M.Akbarova. Shimoliy Qozog'iston surgunidagi yurtdoshlar qismati. – T.: Sharq, 2009; Shamsutdinov R.T. O'zbekistonda sovetlarning qatag'on siyosati va uning oqibatlari. T.: "Sharq" 2012 va boshqalar.

Professor R.T.Shamsutdinov rahbarligida bir guruh olimlar hammuallifligida yaratilgan besh jilddan iborat "Qatag'on qurbonlari" (Repressiya) kitoblarida aynan 1937-1938-yillarda qatag'on qilingan yurtdoshlarimizning ma'lum qismi haqida yangi tarixiy ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Shuningdek, uch jildlik " Tragediya sredneaziatskogo kishlaka" arxiv hujjatlar to'plamlarining nashr

etilishi ham mavzu manbashunosligi va tarixshunosligida katta ahamiyat kasb etadi.

Ishning tuzilishi: Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Jami 64 bet.

I bob Prezident Islom Karimov asarlarida tarix fanini o'rganishga yangicha metodologik yondashuvlar

1991-yil 31-avgust buyuk tarixiy sana – Mustaqilligimiz e'lon qilingan, asriy orzuimiz amalga oshgan kun. Istiqlol tufayli xalqimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy hayotida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Bugun O'zbekiston dunyoning yetakchi davlatlari qatorida o'z o'rnini topgan va bu davlatlar bilan har sohada bimalol raqobat qila oladigan ozod va obod yurtdir. Albatta, bu natijalarga osonlikcha erishganimiz yo'q. Mustaqillik arafasida va istiqlolning dastlabki davrlarida og'ir kunlarni boshdan kechirdik, juda ko'plab sinov va mashaqqatlarni yengib o'tdik. Prezident Islom Karimovning “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli kitobi mana shu g'oyat muhim mavzu, ya'ni qancha-qancha ajdodlarimizning asriy orzusi bo'lgan, bugungi kunda ko'p millatli xalqimiz uchun eng ulug', eng aziz qadriyatga, barcha ezgu maqsad va harakatlarimiz, bunyodkorlik ishlarimizning hayotbaxsh manbayiga aylangan mustaqillikka erishish yo'lida 1989-1991-yillar mobaynida olib borilgan mashaqqatli kurashlar tarixiga bag'ishlanganini alohida ta'kidlash lozim. Darhaqiqat, bu asar yangi tariximizning hal qiluvchi pallasi – mustaqillik arafasida, yorug' kelajak ostonasida turgan xalqimizning o'sha paytdagi o'ta og'ir ahvoli, O'zbekiston istiqloli uchun kurash aynan qachon, qanday vaziyatda boshlanganini aniq fakt va dalillar bilan yorqin ifoda etadi.

Nazariy va amaliy jihatdan katta tayyorgarlikni, ulkan siyosiy tafakkur va donishmandlikni, boy hayotiy bilim va tajribani talab qiladigan bunday murakkab mavzuning istiqlolimiz me'mori, mustaqil davlatimiz asoschisi, o'sha paytda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning asosiy markazida turgan, ularning barchasini o'z qalbi va yuragidan o'tkazgan inson – Yurtboshimiz tomonidan noyob tarixiy hujjatlar va teran tahlil asosida yoritib berilgani beqiyos ahamiyatga egadir. Bu to'plam o'zining tarkibiy tuzilishi, janr xususiyatiga ko'ra ham betakror bo'lib, unda davlatimiz rahbarining 1989-yil 24-iyundan 1992-yil 4-yanvarga

qadar, ya'ni respublikamiz rahbari sifatidagi faoliyatining birinchi kunidan boshlab mamlakatimiz istiqloлга erishganidan so'ng umumxalq saylovi asosida mustaqil O'zbekiston Prezidenti etib saylanishi va o'z vazifasini bajarishga kirishish sanasigacha bo'lgan davrda so'zlagan nutq, ma'ruza, maqola va intervyulari Yurtboshimiz tomonidan imzolangan farmon, qaror va qonunlar o'rin olgan. Hech mubolag'asiz, ularning har birini ulkan siyosiy voqea, yurtimizni milliy istiqloлга olib kelgan murakkab va sharafli kurashlar tarixining o'chmas sahifasi deb atash mumkin.¹ Kitobga kiritilgan, biz uchun yaqin tariximizning eng noyob va ishonchli manbaiga aylangan ana shu hujjatlarni o'rganishda (bu haqda to'plamning kirish qismida ham batafsil ma'lumot berilgan) quyidagi muhim jihatga alohida e'tibor qaratash lozim.

Birinchiidan, yuqorida zikr etilgan xarakterdagi tarixiy hujjatlarning barchasi kitobga to'liq kiritilmasdan, unda faqat xalqimizning asriy orzusi bo'lgan milliy istiqloл mavzusiga oid fikr va qarashlar atroflicha o'z ifodasini top-gan. Boshqacha aytganda, mustaqillik g'oyasi, mustaqillik mavzusi mazkur to'plamga kiritilgan barcha nutq va ma'ruzalarda bamisoli qizil ip bo'lib o'tadi. Shuning uchun ham u yaxlit asardek katta qiziqish va hayajon bilan o'qiladi.

Ikkinchiidan, kitobda yuqorida qayd etib o'tilgan davrda yuz bergan barcha voqea-hodisalarni va muallifning ularga bo'lgan munosabatini xronologik tarzda, qat'iy ketma-ketlik va izchillikda to'la va batafsil yoritish maqsad qilib qo'yilmagan. Asosiy maqsad — sovet davlati hali o'zining hukmronlik kuchini yo'qotmagan, uning repressiv siyosati davom etayotgan, „paxta ishi“ degan tuhmat, sun'iy ra-vishda o'ylab topilgan siyosiy kampaniya paytida qanchadan-qancha odamlar nohaq qamalgan, tazyiq va ta'qiblarga uchragan, xalqimiz o'rtasida tushkunlik, ertangi kunga ishonchsizlik kayfiyati, qo'rquv va vaxima keng tarqalgan bir paytda — ana shunday o'ta og'ir, umumiy inqiroz hayotning hamma sohalarini to'liq qamrab olgan tahlikali sharoitda O'zbekiston rahbari sifatida ish boshlagan Islom Karimovning mustaqillikka erishish masalasini kun tartibiga qat'iy qilib qo'yganini aniq tarixiy hujjatlar orqali ko'rsatish, bu yo'lda

¹ Karimov I.A O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent “O'zbekiston” 2013 – B. 3-5

qanday ulkan tarixiy ishlar amalga oshirilgani haqida o'quvchilar, ayniqsa, kechagi tarixni, o'sha davrdagi zulm va adolatsizlikni o'z ko'zi bilan ko'rmagan yoshlarga ma'lumot yetkazishdan iborat.

Uchinchidan, shuni alohida qayd etish lozimki, bu kitob oradan yigirma yil vaqt o'tganidan keyin moziyga qaytib, o'sha davr voqealarini qayta eslab, memuar yoki esdalik shaklida yozilgan asar emas. Aksincha, bu kitob aslida o'sha shiddatli tarixiy voqealar sodir bo'lgan davrda, ana shu dolg'ali va dramatik jarayonlar bilan birga tug'ilgan asardir. Unda ozod va mustaqil hayot sari borishda xalqimiz qalbida tug'ilgan barcha savollarga javob bor. Shuning uchun ham u juda katta faktik va analitik materialni o'zida mujassam etadigan qomusiy asardir. Shuning uchun to'plamga kiritilgan, kitob holida birinchi marta nashr qilingan tarixiy hujjatlarning har birida o'sha taxlikali zamonning ruhi, muallifning qalb nidosi yaqqol sezilib turadi. Bu hujjatlar har birining manbasi, tarixiy sanasi aniq ko'rsatilgani, har qaysi tarixiy voqeaga xalqimizning, muallifning munosabatini aniq-ravshan ifoda etishi bilan ham nihoyatda qimmatlidir. Ular o'z davrida sobiq SSSRning katta-katta minbarlaridan ulkan jasorat bilan amalga oshirilgan o'tkir chiqishlar sifatida xalqimizni istiqlol sari da'vat etish, yurtimizda yangicha fikr va qarashlarni, tinch-osoyishta, erkin va farovon hayot asoslarini qaror toptirishdek buyuk maqsadlarga xizmat qilgan bo'lsa, bugungi kunda yana bir ezgu vazifani ado etishga — yaqin tariximizning haqqoniy manzarasini aks ettirib, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qillmoqda.

Kitobdan joy olgan materiallar sobiq Markazdagi imperiyaparast kuchlar, mustabid tuzumning shafqatsiz qatag'on apparati O'zbekiston va uning yangi rahbariga nisbatan turli zug'um va tazyiqlarni tinimsiz kuchaytirib borganini mantiqiy izchillikda yoritib beradi. „Paxta ishi“, „o'zbeklar ishi“ degan siyosiy kampaniyalar paytida qizil imperiyaning markaziy matbuoti el-yurtimiz sha'nini tahqirlab, uning boshiga „qo'shib yozish“, „yulg'ichlik“, „ko'zbo'yamachilik“, „boqimandalik“ kabi tuhmat va malomatlar bo'ronini yog'dirgani haqidagi sahifalar chuqur alam va iztirob bilan o'qiladi. Shunday tahlikali paytlarda xalq dardiga darmon bo'lish o'rniga sobiq Markazning nog'orasiga o'ynagan,

mustaqillik g'oyasini niqob qilib, aslida ana shu muqaddas intilishga qarshi chiqqan kimsalar, dunyoviy va diniy ko'rinisdagi radikal siyosiy guruh va oqimlarga qarshi Islom Karimovning qanday katta jasorat, siyosiy vazminlik bilan kurash olib borgani, el-yurtimizga suyanib, uning qalbiga yo'l topib, vaziyatni o'nglash, yurtimizni halokatli inqiroz girdobidan olib chiqish, istiqlol sari boshlash bo'yicha qat'iy chora va tadbirlar, chuqur islohotlarni amalga oshirgani va nihoyat, 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston mustaqilligini e'lon qilgani ushbu kitobning eng dramatik, eng hayajonli sahifalarini tashkil etadi.

Yurtdoshimizning kitobda keltirilgan ushbu fikrlari biz tarixchilar uchun haqqoniy tariximizni yaratishda, har bir davrga, tariximizning "oq dog"larini yoritishga tarixiylik, ilmiylik, xolislik jihatidan yondoshishni asosiy vazifa qilib belgilaydi.

Biz o'z tariximizni yo'qqa chiqara olmaymiz. Bu tariximizda ham qahramonona, ham fojiali sahifalar ko'p bo'ldi. Axir, keksa avlodlarning, otabobolarimizning kurashi va mehnatini inkor etib bo'ladimi? Ular yarim feodal holidagi qoloq mamlakatni ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy jihatdan taraqqiy etgan zamonaviy darajaga ko'tardilar. Bu aniq-ravshan dalilni hech kim rad qila olmaydi.

Ayni vaqtda sotsialistik qurilishning ko'pgina bosqichlarida qo'pol xatolar va buzilishlarga yo'l qo'yilganini ham hech kim, hech narsa shubha ostiga qo'ya olmaydi.

Bu xato va jinoyatlarning ildizlari o'tmishga borib taqaladi. Shaxsga sig'inish yillarida, turg'unlik yillarida noto'g'ri yo'l-yo'riqlar, maqsadlar va ularga erishish yo'llari butunlay buzilib soxtalashtirib yuborildi. Asossiz ravishda qilingan ommaviy qatag'onlarning, kollektivlashtirish va sanoatlashtirish davrida turmushning asosiy negizlari shafqatsizlik bilan barbod qilingani, xalqlarning ma'naviy qadriyat va an'analari qalbakilashtirilgani, ayrim kishilar pulga sotilib, aynib ketganligi, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozga uchragan odamlar xalqning eng zarur ehtiyojlari va hayotiy talablarini pisand qilmay qo'yganliklarini ko'rsatuvchi tobora yangi-yangi dahshatli misollar hozir ma'lum bo'lib qolmoqda. Bunday salbiy hodisalar barcha muzofotlarda, hamma respublikalarda sodir bo'lgan,

bundan barcha xalqlar azob tortgan edi. Salbiy hodisalar qayerda ko'proq, qayerda kamroq sodir bo'lganini hisoblash- odamlarning qayg'u va alamiga tuz sepish demakdir. Bu xunuk siyosiy o'yindir.

Biz o'tmishdagi hamma buzilishlar, xato va jinoyatlarni qat'iy qoralaymiz va ulardan keskin voz kechamiz. Biz o'tmishimizni va hozirgi kunimizni haqqoniy, xolisona, tanqidiy tahlil etishning qat'iy tarafdorimiz. Biz bosmachilik harakati haqida bo'lsin, kollektivlashtirish, repressiyalar, turg'unlik davriga oid buzilishlar haqida bo'lsin – “oq dog”larning butunlay tugatilishi tarafdorimiz. Ammo, albatta har bir voqeani, aniq tarixiy sharoitni hisobga olib shuningdek, bizning tarizimiz, undagi har bir qadam keksa avlodlarning peshona teri bilan va qoni bilan sug'orilganini nazarda tutib shunday qilishimiz kerak. O'tmishimizni boshdan-oyoq qoralash ota-bobolarimiz xotirasi oldida, farzandlarimiz va nabiralarimizning ma'naviy tarbiyasi oldida kechirilmas xato bo'lur edi. ¹

Hamisha tarixning har qanday burilish pallalarida ham bosiq-vazminlik, xolislik va mas'uliyat zarur. 60-80-yillarda sodir bo'lgan barcha voqealarni ayrim shaxslarning aybi bilan bo'lgan edi, deb o'chirib tashlash va xuddi shu asosda o'sha davrda hamma narsa bir xil nohush bo'lgan edi, deb chaplab tashlag mumkin emas.

Sharof Rashidov faoliyatiga baho berishda xuddi ana shu pozitsiyalardan yondoshish lozim bo'ladi. U biz endilikda turg'unlik yillari deb atayotgan davrda, qariyb chorak asr mobaynida respublikaga rahbarlik qilib yashadi va ishladi.

Agar oily adolat mavjud bo'lsa bizning e'tiqodimizga ko'ra, xalq fikri oily haqiqatdir, xuddi ana shu adolat, xuddi ana shu haqiqat o'sha kishining nomi bilan bog'liq bo'lgan. Respublika hayotidagi o'zgarishlarda katta ahamiyatga ega bo'lgan ulkan o'zgarishlarni rad eta olmaydi. To'g'ri, osha davrda xo'jako'rsinchilik va raportbozlik, dabdaba va ko'zbo'yamachilik, oshna – og'aynigarchilik va fitna ham avj olgan edi.

Xo'sh, aynan Rashidov o'sha barcha voqealarning asoschisi bo'lgan edimi? Va bugun biz yakkilik bilan qoralayotgan illatlar faqat uning o'zigagina xos

¹ Karimov I.A O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - Toshkent "O'zbekiston" 2013 B.164-166

bo'lganmi? Axir, xuddi shunday hodisalar boshqa respubliklar va mintaqalarda ham ro'y bermaganmidi?

Brejnev va uning atrofidagi shaxslarning mas'uliyatini ham unutmasligimiz kerak.

Biz Rashidov nomi bilan bog'liq bo'lgan barcha salbiy narsalarni qoralaymiz. Bu salbiy narsalar biz uchun maqbul emas. O'tmishning bu illatlaridan poklanishimiz kerak. Busiz olg'a qarab harakat qila olmaymiz.

Shu bilan bir qatorda o'sha davrdagi qilmishlarni endilikda hayotdan ko'z yumgan bitta shaxsning o'zigagina bog'lab qo'ya olmaymiz. Boz ustiga Rashidovni bugun fosh etayotganlarning aksariyati o'sha vaqtlar ancha baland lavozimlarda u bilan birga ishlagan edi. Shunday ekan hozir uning nomini sotishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Oddiygina diyonat, andisha tuyg'usi, o'tmish uchun shaxsiy mas'uliyat kabi tushunchalar to'g'risida gapirmaganimizda ham ana shunday subutsizlik usullarining xavfi shundaki, hozir ham ayrim kimsalar o'z nafsoniyatini o'ylab, yangi gaplarni qidirmoqda, zir yugurib o'zlarini saqlab qolishga va xatto yangi to'lqinlarda yana balandroq "amal taxti"ga minishga urinmoqda,

Ayni vaqtda asosiy narsa panada qolib ketmoqda. Buning mohiyati shundaki, har qanday davrda xalq buyuk mehnatkash bo'lib kelgan edi. Hozir ham shunday va bundan buyon ham shunday bo'ladi, yer yuzidagi barcha qadriyatlar xuddi ana shu mehnatkash insonlarning qo'li bilan bunyodga kelgan. Kimki xalqqa halollik bilan, mardlik bilan muttasil haq so'zni aytib kelgan bo'lsa shu xalqning bugungi kuni va kelajagi uchun butun mas'uliyatni olsa el-yurtning izzat-hurmati va ishinchidan umidvor bo'lishi mumkin.

Barcha aybni o'zlarining o'tmishdoshlari zimmasiga yuklash noto'g'ridir.....¹. Prezidentimizning mana shu kabi fikrlari biz tarixchilar uchun tariximizning "oq dog"larini o'rganish, uni yoritish bo'yicha yangi metodologik yondashuvni talab qiladi, tariximizni tarixiylik, xolisliqlik, ilmiylik jihatdan yoritishni belgilaydi.

¹ Karimov I.A O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent "O'zbekiston" 2013 B.184-186

Bugun yurtimizda tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Har qaysi sohada ulkan natijalarni qo'lga kiritmoqdamiz. Prezidentimiz Islom Karimovning “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oily saodatdir” nomli asarida bu kunlarni qadriga yetish uchun bugunni kechagi o'tmish bilan solishtirish kerakligi ta'kidlanadi.

Mamlakatimiz erishgan yutuqlarning tub mohiyatiga yetib borish uchun bugungi hayotni kechagi hayot bilan solishtirib ko'rish kerak. Shundan keyin odam bugungi hayotning qadriga yetadi. Yurtimizdagi mislsiz o'zgarishlarni o'z hayoti, oilasi, qishlog'i, maktabi, ishxonasi misolida ko'rgan kishiga o'tgan kunlar bilan bugungi kunning farqi hamda afzalliklari to'g'risida tashviqot yurgizishga hojat qolmaydi.

O'ylaymanki, “Yashasin sovet davlati, yashasin kommunistik partiya” degan gaplar quruq safsata bo'lganini ongli yashaydigan xalqimiz bugun yaxshi biladi. Sovet davrida bizga xuddiki ikkinchi sort odamlar sifatida qaralgani bu zalda o'tirganlaming esidan chiqmagan bo'lsa kerak. Markazdan bir guruh «desantchi»lar yuborilib, adolatsiz tuzum tufayli o'zi shundoq ham nochor yashayotgan xalqimiz poraxo'rga, “pripiskachi”ga chiqarilganini unutilib ham, kechirib ham bo'lmaydi.

Islom Karimov 80-yillardagi og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvol haqida quyidagilarni yozadi: Sobiq SSSR davrida O'zbekistonga nisbatan Markaz tomonidan olib borilgan zo'ravonlik siyosati, xalqimizni kamsitish, uning ehtiyojlarini mensimaslik, yurtimizda paxta yakkahokimligi avjiga chiqib, iqtisodiy holatimiz va hayotimiz jar yoqasiga kelib qolgani, norozilik lovullab yonib ketadigan darajada keskinlashib borgani hech kimga sir emas.

Bu davr yurtimiz uchun nihoyatda og'ir, Markazdan tashlangan «desantchi»lar, turli soxta mafkurachilar - ularning ichida, afsuski, o'zimizdan chiqqanlari ham bor edi – ko'p ziyon yetkazib, o'zbek xalqini poraxo'rlikda, qo'shib yozishda ayblab, har xil tuhmat va bo'htonlar yog'dirayotgan bir davr edi.

Biz “paxta ishi” deganda, uning mudhish oqibatlarini haqida gapirganda, avvalo, ana shunday ming-minglab oddiy, begunoh odamlarni, ulaming boshiga tushgan fojialarni tushunamiz va sun'iy ravishda o'ylab topilgan bu kampaniyani

xalqimizga, yurtimizga nisbatan olib borilgan ommaviy qatag'onning bir ko'rinishi deb baholaymiz.

Biz eski adolatsiz tuzumga boshqa hech qachon qaytmaymiz. O'zimiz tanlagan mustaqil taraqqiyot yo'lidan qat'iyat bilan boramiz. Nega deganda, xalqimiz sobiq tuzum davrida qancha zulm ko'rganini, qancha-qancha odam qatag'on qilinganini esidan chiqargani yo'q.

Biz o'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, “Kecha kim edig-u bugun kim bo'ldik?” degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o'zimizga chuqur tasavvur etamiz. Ayni vaqtda “Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi marralarni egallashimiz kerak?” degan savol ustida o'ylashimiz, nafaqat o'ylashimiz, balki amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim.¹

Prezidentimiz o'zining nutqlarida doimo haqqoniy tariximizni yoritishga, tarixni o'rganishga da'vat qiladi.

Tarixni unutgan xalq, jamiyat o'z yo'lini yo'qotadi. Bunday xalq va jamiyatning kelajagi yo'q.

Ilgari maktablarda O'zbekistonning haqiqiy tarixi o'rgatilmamas edi. O'tgan asrning 17-yilidan boshlab yozilgan tarix kitoblari yolg'on g'oyalar asosida yaratilgani sir emas.

Toshkent shahrida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyini ochganimizdan xabaringiz bor. Maqsad -odamlar haqiqiy tarixni bilsin. Lekin mana shu yaqin va uzoq tarix haqidagi haqiqatni yozishga, uni farzandlarimizga yetkazishga intiladigan fidoyi odamlar, afsuski, juda kam. Sovet davridagi zulm va qo'rquvga asoslangan mafkura, siyosatning ta'siri bizning qon-qonimizgacha singib ketgan, ichimizdagi qo'rquqlik hali ham, taassufki, to'liq barham topgani yo'q.

Kechagi tarix biz uchun hayot maktabi, bamisoli tiniq bir ko'zgu. Unga qarab saboq olamiz, xulosa chiqaramiz, kelajak yo'lini belgilaymiz.

Men har doim mustabid sovet tuzumi, o'sha zamonda xalqimiz boshidan

¹ Karimov I.A Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oily saodatdir. Toshkent-“O'zbekiston” 2015 B.79-96

kechirgan kunlar haqida ko'proq yozinglar, deb, tarixchi va yozuvchilarimizdan iltimos qilaman. O'sha davrda yashagan, uning barcha kirdikorlarini ich-ichidan bilgan ziyolilarimizning qanchasi otib tashlandi, qanchasi qamoqda o'lib ketdi. Ammo o'sha zamonni yoshlarimiz bilishi uchun bizga ko'proq kitoblar, darsliklar zarur.

Tarixdan ibrat olib yashash, tarix haqiqatlarini bilish kishiga quvvat beradi, uni hayot haqiqati bilan qurollantiradi. Tarixni yozishda hech qachon o'ng tomonga ham, chap tomonga ham og'masdan, faqat haqiqat va adolat nuqtai nazaridan yo'l tutilishi kerak. Soxta tarix bamisoli og'u kabi insonni zaharlaydi, uning ong-u dunyoqarashini chalg'itadi.

Men har doim mustabid sovet tuzumi, o'sha zamonda xalqimiz boshidan kechirgan kunlar haqida ko'proq yozinglar, deb, tarixchi va yozuvchilarimizdan iltimos qilaman. O'sha davrda yashagan, uning barcha kirdikorlarini ich-ichidan bilgan ziyolilarimizning qanchasi otib tashlandi, qanchasi qamoqda o'lib ketdi. Ammo o'sha zamonni yoshlarimiz bilishi uchun bizga ko'proq kitoblar, darsliklar zarur.

Tarixdan ibrat olib yashash, tarix haqiqatlarini bilish kishiga quvvat beradi, uni hayot haqiqati bilan qurollantiradi. Tarixni yozishda hech qachon o'ng tomonga ham, chap tomonga ham og'masdan, faqat haqiqat va adolat nuqtai nazaridan yo'l tutilishi kerak. Soxta tarix bamisoli og'u kabi insonni zaharlaydi, uning ong-u dunyoqarashini chalg'itadi.

Eski tuzum davrida biz o'z tariximizni bilmas edik. Ko'zimiz bamisoli ko'r edi. Butun olam yuksak hurmat va ehtirom bilan tilga oladigan buyuk ajdodlarimizni tanimas edig-u, soxta "dohiy"lar hayotini -qachon, qayerda tug'ilgan, nima karomatlar ko'rsatgan - bilar edik, to'g'rirog'i, yodlab olgan edik. Ularni bobomiz, otamiz, deb sig'inar edik. Bu, aynan istibdod va qullik davri edi. Nafaqat moddiy jihatdan nochor edik, eng yomoni, or-nomusimiz toptalgan, qadriyat va an'analarimiz oyoqosti qilingan edi. Bir so'z bilan aytganda, qornimizga emas, qadrimizga yig'laydigan bir davr edi.

O'zlikni anglash degani - bu o'z tariximizni, ming-ming yillik

an'alarimizni bilish degani. Agarki har qaysi odam kechagi kunni yaxshi biladigan bo'lsa, hech qachon avvalgi xatosini yana takrorlamaydi.

O'zingiz eslang, bir vaqtlar, kommunistik mafkura zamonida milliy urf-odatlar, an'analarni rivojlantirish u yoqda tursin, hatto janozaga borish mumkin emas edi. Qarang, qanday og'ir zamon edi! Bu haqiqatni bolalarimizga to'g'ri tushuntirib bersak, tarix bilan, haqiqat bilan qurollanib olsak, hayotimizni shunday to'g'ri yo'lga qo'yamizki, uning aniq manzillari barchaga ayon bo'ladi, butun xalqimizga kuch-g'ayrat bag'ishlab turadi. Bu - erkin, ozod, tinch va barqaror, obod va farovon hayot demakdir.

Inson har qanday sharoitda ham o'zining o'tmishini bilmasa, xato qiladi. Biz kechagi tariximizda ro'y bergan mudhish kunlar haqidagi ma'lumotlarni yosh avlodga o'z vaqtida yetkazsak, ularning ongida hech qachon bo'shliq paydo bo'lmaydi. Bo'shliq degani shuki, kimlardir doim uning o'rnini bir narsa bilan to'ldirish payida bo'ladi va qo'yib bersangiz, bunday "chaqqon"lar istagancha topiladi. O'zining egri niyatiga erishish uchun, kerak bo'lsa, katta pul ishlatadi, eng yomoni, muqaddas islom dinini buzib ko'rsatishga urinib, yoshlarimizni to'g'ri yo'ldan chalg'itishdan ham toymaydi.

Haqiqat, tarix haqiqati bolalarimiz uchun suv va havodek zarur. Tarix haqiqatini to'laligicha keyingi avlodga yetkazish har bir insonning kelajak oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi. O'sha mash'um kunlarni ko'rgan kishilar, faxriylarimiz hayot ekanidan foydalanib, bu borada ko'proq ma'lumot to'plash, ularni tizimlashtirish ustida ishlaydigan olim va mutaxassislar bo'lsa, men bunday tashabbuskor odamlarni shu muqaddas zaminni sevgan vatanparvar, yurtparvarlar deb qabul qilaman va ularni qo'llab-quvvatlashga doim tayyorman.

Insonning tabiati shundayki, vaqt o'tishi bilan yomon voqealar esidan chiqadi. Bir tomondan qaraganda, bu - to'g'ri. Chunki inson boshidan kechirgan baxtsizliklarni, ezilgan kunlarini eslashni xohlamaydi. Lekin yaxshi kunlar, obod va farovon hayotning qadriga yetish uchun inson ba'zi-ba'zida ortga nazar tashlab turishi ham kerak. Tarixdan saboq chiqarib yashashi lozim.

Men, avvalambor, yoshlarimizga qarata aytmochiman: o'qing, tarixni

o'rganing, tarixini, o'tmishini bilgan odam kelajakda adashmaydi.

Tariximizdagi og'riqli davrlardan ham xulosa chiqarib yashashimiz kerak. Ertaga bizning o'rnimizga keladigan yoshlar ana shu tarix haqiqati bilan qurollanishi lozim. Chunki hech bir sohada hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodgina buyuk davlat barpo etishi mumkin. Nega deganda, buyuk davlat qurish uchun ma'rifatli, tarixni, hayotni chuqur biladigan, undan saboq chiqara oladigan odamlar kerak.¹

Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsad-muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi.

Biz bu masalaga ana shunday ilmiy asosda yondashib, qadimiy tariximizni o'rganish va baho berishda uning biror-bir davri yoki jabhasini e'tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qildik. Jumladan, mustamlakachilik va sovet davridagi ommaviy qatag'onlar paytida zulm va zo'ravonlik qurboni bo'lgan, istiqlol yo'lida jon fido etgan ajdodlarimizning hurmati va xotirasini joyiga qo'yish, ularning el-yurt ozodligi yo'lidagi ishlari, qoldirgan merosini izlash va o'rganishni aynan ana shunday ma'naviy negizda yo'lga qo'yganimizni qayd etish zarur.

Ma'lumki, 1937-1953-yillarda Sobiq SSSR hududida mudhish ommaviy siyosiy qatag'onlar amalga oshirilgan edi. Uning salbiy oqibatlarini o'zimizga tasavvur etish uchun birgina O'zbekiston bo'yicha qariyb 100 ming kishi qatag'onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlanganini eslash kifoya. Insoniy qadr-qimmatini toptalgan, hayoti poymol etilgan bu odamlar orasida nafaqat arbob va ziyolilar, balki yuzlab oddiy insonlar, yurtimizda istiqomat qilgan deyarli barcha millat va elatlarning vakillari bor edi. Shu davrda qancha-qancha odamlarning o'z

¹Karim ov I.A Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oily saodatdir. Toshkent-“O'zbekiston” 2015 B.109-121

oilasidan judo bo'lgani, ayollar bevalikka, go'daklar yetimlikka mahkum etilganini, minglab mirishkor dehqonlarning quloq sifatida olis o'lkalarga surgun qilinganini inobatga olsak, xalqimiz boshiga tushgan bu fojining dahshati yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

El-yurtimiz taqdiriga daxldor bo'lgan tarixiy adolatni tiklash, xalqimiz va millatimizning yaqin o'tmishidagi yopiq sahifalarini to'la ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarashni shakllantirish, begunoh qurbon bo'lgan insonlar xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farz edi.¹

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, tarix bamisoli ko'zgu. Inson ko'zguga qarab o'z kamchilik va xatolarini ko'radi. Ularni bartaraf etishga harakat qiladi. Biz o'z tariximizni o'rganish orqali o'tmishdan saboq chiqaramiz, o'tmishdagi xato va kamchiliklarni qaytarmaslikka harakat qilamiz. Shu bois ham Yurtboshimiz Islom Karimov doimo tariximizni o'rganishga, o'zligimizni anglashga, yoshlarimizni tarix bilan qurollantirishga da'vat etadi. Ayniqsa, sobiq Sovet davrida poymol etilgan, yo'q qilingan ma'naviyatimiz, tariximizni tiklashni, sovetlar davri tarixini, uning mudhish siyosati oqibatlarini, begunoh, besabab hayotdan erta ketgan qatag'on qurbonlarini nomma-nom aniqlab, o'rganishni, ularning xotirasini abadiylashtirishni biz tarixchilar uchun asosiy, ustuvor vazifalardan biri ekanligini ta'kidlaydi. O'sha mash'um kunlarni yoritishni o'z oldiga maqsad qilganlarni yurtparvar, vatanparvar deb ataydi .

¹ Karimov I. A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent “Ma'naviyat” 2008 B.97-98

II bob. “Katta terror”ning O‘zbekistonda o‘tkazilishi va fojiali oqibatlari

Qatag‘on mustabid totalitar, mustamlakachi davlat tomonidan xalqqa nisbatan qo‘llaniladigan jazolash, qatli om, qatli nufus, ommaviy tarzda zulm o‘tkazish tushunchalarini o‘zida mujassam etadi. Qatag‘on ommaviy jazolash, qiynoqqa solish choralari mustabid davlatlarning xalqni asoratda, tutqunlikda ushlab turish, qo‘rqitish, bosim, tayziq o‘tkazish qurolidir.¹

Qatag‘on siyosatini chor hukumati Turkistonda keng ko‘lamda olib borgan. Ayniqsa sobiq sovetlar saltanatida bu mudhish qatag‘on siyosati va amaliyoti keng va uzoq vaqt da‘vomida qo‘llanildi. Qatag‘on butun sobiq Ittifoq xalqlari qatori Turkiston, O‘zbekiston xalqi boshiga ham mislsiz og‘ir kulfatlar yog‘dirdi. Jadidchilikni, Turkiston muxtoriyatini, “bosmachilik” deb atalmish milliy harakatni bostirishda, yer-suv islohotini o‘tkazish, kollektivlashtirish davrida qatag‘on siyosati katta ko‘lamda qo‘llanildi. “O‘nglar”ga, “Milliy ittihadchilar”ga, “O‘n sakkizchilar”ga, “Badriddinovchilar”ga, “Qosimovchilar”ga, “Inog‘omovchilik”ka qarshi kurash niqoblari ostida O‘zbekistonda aholining turli qatlamlariga, milliy arboblari, xodimlarga qarshi qatag‘on qo‘llanildi. 1937-1938-yillardagi “Katta terror” kompaniyasida ham O‘zbekistondan minglab odamlar qatag‘on qilichidan o‘tkazildi, konslagerlarga tashlandi.

Urush davrida ham qatag‘on davom etdi. Urushdan so‘ng to‘qib chiqarilgan ruhoniylar, millatchilar ishi bo‘yicha ko‘plab adabiyot, san‘at, ilm-fan, din arboblari qatag‘on qilindi. 40-50-yillar-da taslimchilarga, antisovetlarga qarshi kurash bahonasida ko‘plab yurtdoshlarimiz qatag‘on domiga tortildi. XX asrning 80-yillarida “paxta ishi”, “O‘zbek ishi” deb nomlangan soxta ishlar bo‘yicha minglab begunoh kishilar qatag‘on qilindi.

Ommaviy qatag‘onlarning avj olgan eng yuqori cho‘qqisi bu 1937-1938-yillardagi “Katta terror” davridir. 1937-yilning may-iyun, ayniqsa so‘nggi bir

¹ O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 7-tom B-312

yarim oy davrida, “harbiy-fashistik isyonchilar” otilganidan so‘ng bo‘ljak ommaviy qatag‘on kampaniyasini intensiv rejalashtirish amalga oshiriladi.

1937-yil iyul oyining boshlarida bo‘ljak terrorning yuz minglab qurbonlari taqdirini aniqlovchi qarorlar qabul qilingan. Ulardan eng muhimi-Siyosiy byuroning 2- iyuldagi “Antisovet elementlar to‘g‘risida”gi qarori bo‘lib u “Katta terror” davrining eng ko‘lamli qatag‘on operatsiyasini o‘tkazish uchun o‘ziga xos start edi. Ana shu qaror asosida NKVDning 00447 sonli mana endi hozirda mashhur bo‘lib ketgan buyrug‘i (“quloqlar to‘g‘risidagi buyrug‘” deb ham atalgan o‘sha vaqtda) tayyorlangan. Unga ko‘ra 1937-yil 5-avgustdan 1938-yil noyabr o‘rtalarigacha mahsus tashkil etilgan uchliklar kamida 800 000 kishini, ulardan yarmini otuvga hukm qilganlar. 1937-yil avgustdan NKVD milliy operatsiyalar o‘tkazish bo‘yicha yana bir necha buyrug‘lar qabul qiladi. Bu bilan 1937-1938-yillardagi terror qurbonlari miqdori deyarli 350 ming kishiga ko‘paytirib yuboriladi.

1937- yil 30-iyulda SSSR ichki ishlar xalq komissarining (N. Ejov imzolagan) “Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa antisovet elementlarni qatag‘on qilish bo‘yicha operatsiya to‘g‘risida”gi 00447-sonli operativ mutlaqo mahfiy tamg‘a ostidagi buyrug‘ida antisovet uyushmalarni tergov qilish materiallarida avvalida qatag‘on qilingan, qatag‘on bo‘lishdan yashirinib yurgan, lagerlardan, surgunlardan va mehnat posyolkalaridan qochib kelgan sobiq quloqlarning katta qismi qishloqlarda o‘rnashib qolgani qayd etilgan. O‘tmishda ko‘plab qatag‘on qilingan cherkovchilar va sektantlar, sovetlarga qarshi qurolliy chiqishlarning sobiq ishtirokchilari ham qishloqda o‘rnashib olgani ta’kidlangan. qishloqda mavjud bo‘lgan va ularning qoldig‘i siyosiy partiyalar (eserlar, gruzmekilar, dashnoqlar, mussavatchilar, ittixodchilar) xodimlarining, shuningdek banditlar qo‘zg‘olonining sobiq faol ishtirokchilari, oq jazochilar, reapatiantlarning katta qismiga ham deyarli tegilmagani buyrug‘da ko‘rsatilgan. “Yuqorida sanab o‘tilgan elementlarning bir qismi qishloqdan shaharlarga ketib, sanoat, transport va qurilishlarga suqilib kirib olganlar” – deyilgan buyrug‘da.

Bundan tashqari hozirga qadar jinoyatchilar, hayvon o'g'rilari, retsivist-o'g'rilar, talonchilar va jazoni o'tab qamoqdan qochib kelib, qatag'on bo'lishdan yashirinib yurganlar ham qishloq va shaxarlarda uya qurib olganlar. Bu jinoyatchilar kontingenti bilan etarli kurash olib borilmaganidan jazo berilmagani oqibatida ularning jinoyatchilik faoliyati faollashib borgani ham mazkur hujjatda qayd qilingan. Bu barcha antisovet elementlar, unsurlar kolxoz va sovxozlardagi transport hamda sanoat sohasidagi har qanday antisovet va qo'poruvchilik jinoyatlarning kelib chiqishining asosiy tashkilotchilari ekani buyrug'da qayd etilgan. Ushbulardan kelib chiqib buyrug'da davlat xavfsizligi organlari oldida bu antisovet elementlar bandasini hech ham ayamadan tugatish, mehnatkashlarni, sovet xalqini ularning aksilinqilobiy hurujlaridan himoya etish va ularning Sovet davlatining asosiga, negiziga qarshi qilgan abraxona qo'poruvchiligini tag-tugi bilan abadul-abad yo'q qilish zarurligi ham ko'rsatilgan.

Ana shu holatdan kelib chiqib 1937-yil 5-avgustdan barcha respublikalar, o'lkalar va viloyatlarda sobiq quloqlar, faol antisovet elementlar va jinoyatchilarni qatag'on qilish bo'yicha operatsiya o'tkaziladigan bo'ldi. Bu operatsiya O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston SSRda 1937-yil 10-avgustdan boshlanadigan bo'ldi. Buyrug'da operatsiyani o'tkazish bo'yicha 9 punktdan iborat yo'riqnoma ham keltirilgan. qatag'on qilinadiganlar kontingenti qo'yidagilardan iborat edi:

1. Jazoni o'tab qaytgan va faol antisovet qo'poruvchilik faoliyatini davom ettirayotgan sobiq quloqlar.
2. Lagerlar yoki mehnat posyolkalaridan qochib ketgan sobiq quloqlar, shuningdek, quloqqa tortilishdan yashirinib, sovetlarga qarshi faoliyat olib borayotgan sobiq quloqlar.
3. Isyonkor va fashistik, terrorchi va banditlar qo'shilmalaridagi, jazoni o'tab, qatag'ondan yashirinib yoki qamoq joylaridan qochib ketgan va o'zining sovetlarga qarshi jinoyatkora faoliyatini tiklab olgan sobiq quloqlar va ijtimoiy xavfli unsurlar.

4. Sovetlarga qarshi partiyalar (eserlar, gruzmekilar, dashnoqlar, mussavatchilar, ittixodchilar) a'zolari va qatag'ondan yashirinib yurganlar, qamoq joylardan qochib ketganlar va faol antisovet qo'poruvchi faoliyat olib borayotgan sobiq oqlar, jandarmlar, chinovniklar, jazo beruvchilar, banditlar, banditlarga ko'maklashayotganlar, perepravshiklar, reemigrantlar.

5. Tergov va tekshiruv agentlari materiallari bilan fosh qilingan, tugatilgan kazak-oq gvardiyachilarning isyonkor tashkilotlari, fashistik, terrorchi va josus-qo'poruvchi qo'shilmalarning eng dushman va faol ishtirokchilari.

Shuningdek, hozirda qamoqda, tergovda saqlanayotgan, ularning ayrimlarining ishi tugagan, biroq, hali sud organlari ko'rib chiqmagan ana shu kategoriyadagi unsurlar ham qatag'on qilinishi ko'zda tutilgan.

6. Turmalarda, lagerlarda, mehnat posyolkalarida va koloniyalar qamoqxonalarda saqlanayotgan va bu joylarda faol antisovet qo'poruvchilik ishi olib borayotgan sobiq quloqlar, jazokorlar, banditlar, oqlar, sektantlik faollari, cherkovchilar va boshqalar.

7. Jinoiy faoliyat olib borayotgan jinoyatchilar (banditlar, talonchilar, o'g'ri-retsivistlar) va jinoiy muhit bilan bog'langanlar.

8. Lagerlarda va mehnat posyolkalardagilar va u joylarda jinoiy ish olib borayotgan jinoyatchi elementlar.

9. Hozirgi vaqtda qishloqlarda, kolxozlarda, sovxozlarda, qishloq xo'jalik korxonalarida va shaxarlardagi sanoat va savdo korxonalarida, transportda, sovet muassasalarida hamda qurilishdagi yuqorida keltirilgan barcha kontingentdagilar qatag'on qilinishi zarurligi buyruqda qayd etilgan. Qatag'on qilinadiganlar va ularning miqdori hamda jazolash choralari buyrug'da belgilab berilgan.

qatag'on qilinadigan quloqlarning jinoyatchilar va boshqa antisovet elementlar ikki toifaga bo'lingan:

a) Birinchi toifaga yuqorida qayd etilgan eng ashaddiy unsurlar kirgan. Ular darhol qamoqqa olinib, ishlari uchlikda ko'rib chiqilib otuvga xukm qilinishi ko'rsatilgan;

b) Ikkinchi toifaga kamroq faol bo'lgan, lekin dushman kayfiyatdagi elementlarning qolganlari kirgan. Ular xibsga olinib 8 yildan 10 yilgacha lagerlar

qamog'iga olinishi, ularning eng ashaddiy va ijtimoiy xavflilari uchlik tomonidan turmaga ana shu muddatga hukm qilinishi lozim bo'lgan.¹

Ichki ishlar xalq komissarligining respublika xalq komissarliklari va NKVDning o'lka va viloyatlar boshqarmalari, bo'limlari boshliqlari tomonidan O'rta Osiyo respublikalarida qatag'on qilinadiganlar miqdori quyidagicha belgilangan:²

	Birinchi kategoriya	Ikkinchi kategoriya	Jami
Qirg'iziston SSR	250	500	750
2. Tojikiston SSR	500	1300	1800
3. Turkmaniston SSR	500	1500	2000
4. O'zbekiston SSR	750	4000	4750

Bu tasdiqlangan raqamlar taxminiy bo'lgan. Biroq NKVDning respublikalar xalq komissarliklari va o'lka, viloyatlar boshqarmalari, bo'limlari boshliqlari bu raqamlarni o'z holicha oshirib yuborish huquqiga ega bo'lmaganlar.

Agarda sharoit, vaziyat tasdiqlangan raqamni ortig'i bilan bajarishni taqoza etsa, u holda NKVDning respublikalar xalq komissarlari, viloyat va o'lka boshqarmalari, bo'limlari boshliqlari xalq komissari N.Ejovga asoslangan tegishli takliflarni taqdim etishlari ko'rsatilgan. Raqamlarni kamaytirish yoki birinchi toifa bo'yicha qatag'on qilinadigan shaxslarni ikkinchi toifaga o'tkazish va aksincha ikkinchi toifadan birinchi toifaga o'tkazishga ruxsat berilgan.

4. Birinchi va ikkinchi toifalar bo'yicha hukm etilganlarning oilalari qatag'on qilinmagan.

Bundan quyidagilar mustasno bo'lgan:

- a) faol antisovet harakatlarga qodir oila a'zolari. Bunday oilalar a'zolari

¹Shamsutdinov R Qatag'on qurbonlari. 2-kitob Toshkent "Sharq" 2007 B-15-18

²Shamsutdinov R "Vatan tarixi" 3-kitob Toshkent "Sharq" 2010 B-322

uchlikning maxsus qarori bilan lagerlarga yoki mehnat posyolkalariga joylashtirilishi ko'zda tutilgan.

b) birinchi toifa bo'yicha qatag'on qilingan, chegara zonalarda yashayotgan oila a'zolari chegara zonasidan tashqaridagi respublikalar, viloyatlar va o'lkalar ichidagi xududlarga ko'chirilishi ko'zda tutilgan.

v) birinchi toifa bo'yicha qatag'on qilinganlar va ularning Moskva, Leningrad, Kiyev, Tbilisi, Boku, Rostov-na Donu, Taganrogda va Sochi, Gagra va Suxumida yashayotgan oilalari bu punktlardan o'zlari tanlab olgan boshqa viloyatlarga (chegara rayonlaridan tashqari) ko'chirilishi lozim bo'lgan.

5. Birinchi va ikkinchi toifalar bo'yicha qatag'on qilingan oilalardagi a'zolarining barchasi hisobga olingan hamda ular doimiy ravishda nazoratda bo'lganlar.

Buyrug'da operatsiyani o'tkazish tartiblari ham belgilab berilgan. Operatsiyani 1937-yil 5-avgustda boshlash va to'rt oy muddatda yakunlash; Turkmaniston, Tojikiston, O'zbekiston va Qirg'iziston sovet sotsialistik respublikalarida operatsiyani 1937-yil 10-avgustida, SHarqiy Sibir viloyatida, Krasnoyarsk, Uzoq Sharq o'lkalarida esa 15-avgustdan boshlash ko'rsatilgan.

Birinchi navbatda birinchi toifadagi kontingentdagilar qatag'on qilingan.

Ikkinchi toifadagi kontingentdagilarni maxsus ko'rsatma va farmoyish kelgunga qadar qatag'on qilish mumkin bo'lmagan.

Shu jumladan NKVDning respublikalar xalq komissarliklari, NKVDning viloyat boshqarma va bo'limlari birinchi toifa kontingenti bo'yicha operatsiyalarni o'tkazishni yakunlaganlaridan so'ng ikkinchi toifadagi kontingent bo'yicha operatsiyani o'tkazishga kirishishlari kerak bo'lgan. N.Ejovning bu haqdagi sanksiyasi olingandan so'nggina ikkinchi toifadagilar bo'yicha operatsiyani boshlash mumkin bo'lgan.

Barcha qamoqqa olinganlar va har xil muddat bilan lager va turmalarga hukm qilinganlarga nisbatan hukmlar chiqarilishi bilan bu haqda N.Ejovga qancha odamga hukm chiqqani, qancha odam qanday muddatga turma yoki lagerga hukm etilgani xabar qilinishi talab qilingan. Bu ma'lumotlar olingach N.Ejov qaysi

tartibda va qaysi lagerlarga hukm qilingan maxbuslarni yuborish to'g'risida ko'rsatma bergan.

Respublikalar, o'lkalar va viloyatlar hududlarida mahalliy sharoitlar va yuzaga kelgan vaziyatga muvofiq ravishda operativ sektorlar tashkil qilingan. Har bir sektor bo'yicha operatsiyani tashkil etish va o'tkazish uchun operativ guruhlar tuzilgan, bu guruhlar o'zlariga yuklatilgan jiddiy operativ vazifalarni muvoffaqiyatli eplay oladigan NKVDning ma'sul xodimlaridan iborat tarkibda tuzilgan. Ayrim holatlarda operativ guruhlarining boshliqlari eng tajribali va qobiliyatli rayon va shahar ichki ishlar boshliqlaridan tayinlangan.

Operativ guruhlar zarur operativ xodimlardan shakllangan va ular transport va aloqa vositalari bilan ta'minlangan. Operativ holat talabidan kelib chiqib guruhlariga harbiy yoki militsiya qismlari ham berilgan. Operativ guruhlar boshliqlariga qatag'on qilinadiganlarni aniqlash va uni hisobini olib borish, tergovga, tasdiqlangan ayblov xulosalarga hamda "uchlik"larning hukm chiqarishlari va ularning ijro etilishiga rahbarlik qilish vazifasi topshirilgan. Operativ guruh boshlig'i o'z sektori xududida operatsiyani tashkil etish va o'tkazishga ma'sul bo'lgan. Har bir qatag'on qilinayotgan uchun batafsil ma'lumotlar, aybdor qiluvchi materiallar to'plangan. Bu materiallar asosida qamoqqa olinadiganlar ro'yxatlari tuzilgan, ular operativ guruh boshlig'i tomonidan imzolangan va 2 nusxada ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun ichki ishlar xalq komissarligiga, NKVDning boshqarma yoki viloyat bo'limi boshlig'iga yuborilgan. Ichki ishlar xalq komissarligi NKVDning boshqarma yoki viloyat bo'lim boshliqlari ro'yxatlarni ko'rib chiqib, taqdim etilgan ro'yxatdagi shaxslarni xibsga olishga sanksiya berganlar.

Tasdiqlangan ro'yxat asosida operativ guruh boshlig'i qamoqqa olgan. Har bir xibsga olish order bilan rasmiylashtirilgan. Xibsga olish paytida qunt bilan tintuv qilingan, qurol, o'q dori, harbiy anjomlar, portlatuvchi moddalar, zaharlovchi va zaharli moddalar, aksilinqilobiy adabiyotlar, qimmatbaho metall monetalar, qo'yilmalar, chet el valyutasi, ko'paytiruvchi priborlar va yozishmalar tortib olingan. Barcha tortib olingan narsalar bayonnomaga kiritilgan. Hibsga olinganlarni

ichki ishlar xalq komissarligi, NKVDning boshqarma va viloyat bo'limlari boshliqlari tomonidan belgilangan punktlarda to'plaganlar, bu punktlarda qamoqqa olinganlar uchun yaroqli binolar ajratilgan. Xibsga olinganlar soqchilar nazoratida bo'lganlar. qochib ketish yoki boshqa qandaydir eksesslar bo'lmashini kafolatlaydigan tadbirlar belgilangan.

Uchlik materiallar xarakteri va qamoqdagi maxbusning ijtimoiy xavfliligi darajasiga qarab 2-toifa bo'yicha qatag'on qilinayotgan shaxsni 1-toifaga, 1-toifa bo'yicha qatag'on qilinayotgan shaxsni 2-toifaga o'tkazishi mumkin bo'lgan.

Uchlik o'z yig'ilishlarini bayonnomalarda aks ettirib borgan, ularda har bir hukm qilinayotganga nisbatan chiqarilgan hukm yozilib borilgan. Yig'ilish bayonnomasi hukmni ijro etilishi uchun operativ guruh boshlig'iga yuborilgan. Tergov ishiga har bir hukm qilinganga nisbatan bayonnomadan ko'chirma tirkab qo'yilgan. Hukmni ijro qilish tartibi ham belgilab berilgan. Hukm ijrosi uchlik raisi ko'rsatmasi bilan amalga oshirilgan. Hukmni ijro etish uchun uchlik yig'ilishi bayonnomasidan ko'chirma asos bo'lgan.

Birinchi toifa bo'yicha hukmlar ijrosi respublika xalq komissari, NKVDning boshqarmasi, bo'limi boshliqlari ko'rsatmasi bilan vaqti va joyi yashirin holatda bajarilgan. Hukmning ijrosi haqidagi hujjatlar har bir hukm etilganning tergov ishiga alohida konvertida solib qo'yilgan.

2-toifa bo'yicha hukm qilingan shaxslar SSSR ichki ishlar xalq komissarligi Davlat lagerlar Boshqarmasi (GULAG) xabar qilgan naryadlar asosida amalga oshirilgan.

Operatsiyalarning o'tkazilishiga umumiy rahbarlik qilish SSSR ichki ishlar xalq komissari o'rinbosari, davlat xavfsizligi Bosh boshqarmasi boshlig'i komkor Frinkovskiya topshirilgan. Operatsiyalarga rahbarlik qilish bilan bog'liq ishlar bo'yicha maxsus guruh tashkil qilingan.

Qamoqqa olinganlarni tergov qilish tartiblari ham buyrug'da ko'rsatilgan:

1. Hibsga olingan har bir maxbusga yoki maxbuslar guruhiga tergov ishi ochilgan. Tergov tezkorlik bilan va oddiy tartibda olib borilgan. Tergov jarayonida maxbusning barcha jinoiy aloqalari ochib tashlanishi kerak bo'lgan.

2. Ish ko'rib chiqilgach qarab chiqish uchun uchlikka yuborilgan.

Ishga hibsga olish uchun order, tintuv bayonnomasi, tintuvda olib qo'yilgan materiallar, shaxsiy hujjatlar, hibsga olinganning anketasi, agentura-hisob materiallari, tergov bayonnomasi va qisqa ayblov xulosasi ilova qilingan. Uchlikni tashkil qilish va uning ishi buyrug'da belgilab berilgan. Buyrug' bilan respublikalar, o'lkalar va viloyatlar uchliklari tarkibi ham tasdiqlangan.

O'zbekiston SSR bo'yicha uchlik N.A. Zagvozdin (respublika ichki ishlar xalq komissari), A. Ikromov (O'zbekiston kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi), To'rabekov (xalq komissarlar soveti raisining o'rinbosari)lardan iborat tasdiqlangan.

Uchlik yig'ilishlarida respublika, o'lka va viloyat prokurorlari ishtirok etishlari mumkin bo'lgan, agarda u uchlik tarkibiga kiritilmagan bo'lsa. Uchlik o'z ishini tegishli NKVD va uning boshqarma hamda bo'limlar joylashgan punktlarda olib borgan, yoki operativ sektorlar joylashgan joyga borib ish ko'rgan.

Uchlik unga taqdim etilgan har bir maxbus yoki maxbuslar guruhi shuningdek surgun qilinayotgan har bir oila to'g'risidagi materiallarni ko'rib chiqqan.

Hukmlar ijro etilganligi haqidagi uchliklar bayonnomalari zudlik bilan SSSR ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavsizligi Bosh boshqarmasining 8-bo'limiga yuborilgan. Unga 1-forma bo'yicha hisob kartochkalari ilova qilingan. 1-toifa bo'yicha hukm qilinganlarga bir vaqtning o'zida bayonnomasi va hisob kartochkasi hamda tergov ishlari yuborilgan.

Operatsiyaning borishi va natijalari to'g'risida besh kunlik ma'lumotlar bilan har oyning 1, 5, 10, 20 va 25 kunlari telegraf orqali va batafsilroq pochta orqali yetkazib turilgan. Operatsiyani o'tkazish jarayonida yangidan ochib tashlangan aksilinqilobiy uyushmalar, banditlar va talovchilar guruhlari, yuzaga kelgan eksesslar va boshqa favquloddagi hodisalar haqida zudlik bilan telegraf orqali xabar qilish talab qilingan. Operatsiyalarni tashkil etish va o'tkazishda qatag'on qilinayotganlarning nolegal holatga o'tishlariga, yashash joyidan qochib ketishlarga, ayniqsa chetga chiqib ketishiga, banditlar va talonchilar guruhlari tashkil bo'lishiga, qandaydir eksesslar vujudga kelishiga hech qanday yo'l qo'ymaslik, bu borada tugal choralar ko'rish buyrug'da ko'rsatilgan. Har qanday

faol aksilinqilobiy harakatlarni yuzaga keltirishga bo‘lgan urinishlarni o‘z vaqtida aniqlash va unga tezkorlik bilan barham berish ham buyrug‘da ko‘rsatilgan.

Ana shu katta terror davrida, ya‘ni 1937 yil 10 avgustdan 1938 yil 1 yanvargacha bo‘lgan vaqtda O‘zbekiston bo‘yicha faqat sobiq “quloqlar”dan 5924 kishi, jinoyatchilardan 1679 kishi, boshqa “sovetlarga qarshi unsurlar”dan 3097 kishi, jami 10700 kishi qamoqqa olingan. Ulardan 3613 kishi 1-kategoriya bo‘yicha otuvga, 7087 kishi 2- kategoriya bo‘yicha 8-10 yil muddat bilan qamoq jazosiga, mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan.

1-kategoriya bo‘yicha otuvga hukm qilinganlarning 1376 nafari sobiq quloqlar, 952 nafari jinoyatchilar va 1285 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo‘lgan. 2-kategoriya bo‘yicha hukm qilinganlarning 4548 nafari sobiq quloqlar, 727 nafari jinoyatchilar, 1812 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo‘lgan.¹ Andijondagi “Meros” Xalqaro Ilmiy-amaliy Ekspeditsiya hayriya jamg‘armasi tomonidan tayyorlangan ko‘p jildlik arxiv hujjatlar to‘plamida 1937-1938 yillarda uchlik qarori bilan hukmga tortilgan o‘zbekistonlik qatag‘on qurbonlari haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Birinchi jildga 1937 yil 10 avgustdan 5 noyabrgacha bo‘lgan vaqt ichida Uchlik qarori bilan O‘zbekiston bo‘yicha qatag‘on qilinganlardan 3083 mahbusdan 1688 kishi otuvga, 1369 kishi 8-10 yil mehnat tuzatuv lageriga (surgun qilish sharti bilan), 36 nafari qamoqdan ozod qilishga hukm qilingani haqidagi ma‘lumot kiritilgan. Bu qatag‘on qurbonlarining milliy tarkibida o‘zbeklar 2361 kishi, ruslar 462 kishi, tatarlar 58 kishi, qozoqlar 33 kishi, turklar 31 kishi, armanlar 24 kishi, nemislar 20 kishi, ukrainlar 18 kishi, tojiklar 16 kishi, polyaklar 12 kishi, ozarbayjonlar 10 kishi, uyg‘urlar 5 kishi, afg‘onlar 3 kishi, xitoylar 3 kishi, gruzinlar 3 kishi, 1 fransuz bo‘lgan.

Bu maxbuslarning ijtimoiy tarkibi quyidagicha bo‘lgan: quloqlar 1543 kishi, kolxozchilar 781 kishi, diniy xizmatchilar (imom, eshon, domla va boshqalar) 437 kishi, savdogarlar 149 kishi, jinoyatchilar 87 kishi, boylar 54 kishi, xizmatchilar 132 kishi, ijtimoiy ahvoli aniqlanmaganlar 645 kishi, ular orasida hunarmandlar, aravakashlar, qorovullar, sartaroshlar, sotuvchilar, o‘t o‘chiruvchilar, nafaqaxo‘rlar, nogironlar, xazinachilar, qassoblar, dallollar va boshqalar bo‘lgan.

Partiyaviy jihatdan esa ulardan 20 nafari sobiq “Sho‘roi islom”chi, 91 nafari sobiq “Milliy ittihad”chi, 61 nafari sobiq VKP(b) a’zosi, 17 nafari sobiq eserlar, 4 nafari «Ittihodiy va taraqqiy»chi, 5 nafari Musavvatchi, 5 nafar Internatsional demokratik partiyaning sobiq a’zosi, 2 nafari sobiq “Turon» a’zosi, 3 nafari sobiq dashnoqchilar, partiyasizlar esa 2866 kishidan iborat bo‘lgan. Qatag‘on qurbonlaridan 454 nafari avvalda “bosmachilik” harakatida, 111 nafari kolxoz tuzumiga, quloq qilishga qarshi qo‘zg‘olonda ishtirok etganlar. Ana shunday holatni 1938 yilda qatag‘on qilinganlar misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Uchlikning 1938-yil 4-fevraldan 17-fevralgacha bo‘lgan vaqt ichida 21-yig‘ilishi (bayonnomalar 66,67,68,69,70,71,72,73,74,75,76,77,78,82,83,84 ,85, 86,87, 88,89) o‘tkazilib, unda 2378 mahbus ishi ko‘riladi. Shundan 1977 mahbus otuvga, 393 mahbus aksariyat 10 yil, oz qismi 8 yildan mehnat tuzatuv lageri qamog‘iga hukm qilingan, barmoq bilan sanaladigan darajadagi mahbus qamoqdan ozod qilishga hukm etilgan, ayrim mahbuslar qamoqxonada hukm chiqqanga qadar o‘lib qolgan.

Uchlikning faqat 1938-yil 21, 22- sentyabrdagi yig‘ilishlarida 100 mahbus otuvga, 383 mahbus 10-8 yil mehnat tuzatuv lageri qamog‘iga hukm qilingan.¹

Katta terror vaqtida O‘zbekiston xududidan tashqari joylarda taqdir taqozasi bilan yashab tiriklik qilayotgan, xususan GULAG va Mehnat tuzatuv lagerlari, koloniyalaridagi maxbuslar, Ukraina, SHimoliy Kavkaz o‘lkasi, qozog‘istondagi mehnat, maxsus posyolkalarda surgun azobini tortayotgan “sobiq quloqlar” ham takroran qatag‘on qilingan edi. Ularni ham aniqlab hisoblaydigan bo‘linsa o‘zbekistonliklardan mudhish katta terror qurbonlari miqdori ancha ko‘payadi.

Masalan, 1931-yili O‘zbekistondan Ukrainaning Xerson viloyatiga surgun qilingan yurtdoshlarimizdan, sobiq quloqlardan Goloprstan va Skadovskiy tumanlari bo‘yicha 200 ga yaqin mehnat ko‘chkindilari ayni ana shu katta terror vaqtida

¹Shamsutdinov R. Qatag‘on qurbonlari 2-kitob Toshkent “Sharq” 2007 B-18-20

qatagʻon qilingani aniqlangan. Shimoliy Kavkaz surgunidagi yurtdoshlardan hozircha 41 nafar kishi qatagʻon qilingani aniqlandi.¹

Moskva yonidagi Dmitrov lagerida 1933-1938-yillari koʻplab oʻzbekistonlik maxbuslar, sobiq quloqlar “kkinchi besh yillikning buyuk qurilishi” hisoblangan Moskva-Volga kanali qurilishida faol qatnashganlar, ularning koʻplari oʻlib ketgan, maʼlum qismi kanal qurilib, ishga tushgandan soʻng takroran qatagʻon qilingan. Ulardan 51 kishi 1937-1938-yillari otilib Butovo poligoniga koʻmilgani aniqlandi.²

Shimoliy Qozogʻiston surgunidagi yurtdoshlardan 21 nafari ayni 1937-1938- yillarda qatagʻon qilinib, otib yuborilgani aniqlandi. Biroq bu maʼlumotlar yana toʻldirilishi, hali maʼlum boʻlmagan qatagʻon qurbonlarining boʻlishi tabiiydir. Chunki tegishli arxivlardan har xil sabablarga koʻra Oʻzbekiston hududidan tashqarida qatagʻon qilingan hamyurtdoshlarimizning barchasi toʻliq aniqlanganicha yoʻq. Bu sohada tadqiqot, qidiruv ishlari olib borilishi kerak.

Uchlikning qarori bilan oliy jazoga hukm etilgan mahbuslar zudlik bilan otilgan. Otuvlar miqdori shu qadar koʻp boʻlganki, oqibatda joylarda oliy jazo hukmini ijro etuvchi maxsus idora ham tashkil etilgan. Bunday idora Oʻzbekiston respublikasida 1933-yildayoq tashkil qilingan. Oʻzbekiston SSR Oliy Sudi raisi Abdurahmonovning 1934-yil 29-martda Oʻz SSR Xalq Komissarlari Sovetiga, nushasi respublika Moliya Xalq Komissariga yoʻllagan xatida 1933-yilda Oliy Sud huzuridagi oliy jazo chorasini ijro etish maxsus kamerasini jihozlash va uni faoliyat koʻrsatishi uchun Xalq Komissarlari Soveti tarqatma fondidan 37335 soʻm ajratilgani, 1934-yil uchun esa 47000 soʻm mablagʻ ajratilishi soʻralgan. Smetaga koʻra bu maxsus kamera faoliyatini tashkil qilish bilan 1 nafar komendant, 1 nafar komendant yordamchisi, 6 nafar otuv bilan mashgʻul boʻluvchilar va 1 haydovchi xizmat qilishi koʻrsatilgan. Komendantning oylik maoshi 500 soʻm, komendant yordamchisining oylik maoshi 350 soʻm, otuvchilarning har birining oylik maoshi

¹ Shamsutdinov R. Oʻzbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va fojeali oqibatlari. Toshkent “Sharq” 2001 B-162-172

² Shamsutdinov R, Mamajonov A. Shimoliy Kavkaz surgunidagi yurtdoshlar qismati. Toshkent “Sharq” 2005 B-241-250

300 so‘mdan, haydovchining oylik maoshi 320 so‘m qilib belgilangan. Bu maxsus idora xodimlarining bir yillik ish haqi 35640 so‘mni tashkil etgan. Bu maxsus idora 1937-1938-yillarda yanada kengaygan, xodimlar miqdori ham ko‘paygan va uning okruglarda bo‘limlari ham bo‘lgan. Poytaxt Toshkentda uchlik tomonidan otuvga hukm qilingan mahbuslar Toshkent turmasida yoki siyosiy mahbuslar uyida saqlanayotgan bo‘lsa, ular Yunusobodagi qatlgohlarda, hozirgi Shahidlar xotirasi majmuasi joylashgan joyda otilgan. Viloyatlar bo‘yicha otuvga hukm etilgan mahbuslar qaysi okrugda qamoqda bo‘lsalar, o‘sha joydagi qatlgohda otilganlar, ya’ni har bir okrugdagi qamoqxonalarda oliy jazo chorasini ijro etuvchi xodimlar bo‘lgan. Masalan, Andijon okrug sektori taqdimiga ko‘ra Toshkentdagi respublika uchligi nechta mahbusni otuvga hukm qilgan bo‘lsa, hukm ijrosi Andijonda ro‘yxat bo‘yicha, qaror asosida amalga oshirilgan. Xullas, respublikada markaziy qatlgoh va joylardagi mahalliy qatlgohlar faoliyatda bo‘lgan.

O‘zbekiston SSR ichki ishlar xalq komissarligi “uchlik” kotibi vazifasini bajargan Yakov Mixaylovich Yakovlev mana bularni eslaydi; “uchlik” har soatda 100ga yaqin ish qo‘rgan, hukm esa ikki xil; oliy jazo-otib o‘ldirish yoki 10 yil yozishma olib borish cheklangan holda qamoq bo‘lgan. bularning ikkalasi ham o‘lim degani edi. ishni tekshirish, muhokama qilish degan amaliyot qo‘llanilmas edi. “Uchlik”ning qarori mening ishtirokimda, NKVD komendanti Shishkin tomonidan darhol ijro etilardi. Mahbus otib tashlanardi. Hukm qilinganlar orasida o‘limi oldidan “Yashasin Stalin, yashasin sovet hokimiyati!” degan hitoblar aytilganini ko‘p marta eshitganman. Ular nazarimda, vijdonan ishlagan, hukumatga sodiq insonlar edi. Shishkinga ijrochiligi uchun “Hurmat” belgisi ordeni topshirilganini ham bilaman.

Barcha qamashlar, qatl etishlar NKVD tomonidan olib borilgan, butun qamoqxona lagerlar tizimi uning qaramog‘iga o‘tgan. Mahbuslarning do‘stlari, qarindoshlari, tanish-bilishlari ham qamoqqa olina boshlangan. Terror rejali olib borilgan. NKVDning viloyat boshqarmalari, tuman bo‘limlari qamoqqa olish rejalarini olib turganlar. Moskvada NKVDning shifrlash bo‘limida ishlagan Vladimir Petrov jo‘natilgan telegrammalar matnini eslab qolgan, “Frunze NKVD

o‘n ming “xalq dushmanlari” yo‘q qilinsin. Ijroni bajarish haqida doklad qilinsin.» Sverdlovskga 15 ming “xalq dushmani”ni yo‘q qilish haqida buyruq bilan telegramma yuborilgan. Ana shunday topshiriqlar o‘z navbatida viloyat va tumanlarga (raznaryadka) limitlar ajratilar va ularni bajarish uchun qat’iy talablar qo‘yilgan. Bu topshiriqlarni qoyil-maqom qilib bajarmaganlarni fojeali taqdir kutardi. “Endi aybdor shaxsni axtarib o‘tirish shart emasdi, to‘g‘ri kelgan shaxsni tutib olib, undan “aksilinqilobchi” yasashaverardilar. So‘roq protokollari matni oldindan yozilib, tayyor qilib qo‘yilar, tutib keltirilgan odamning familiyasi yozilsa bo‘ldi, bitta “josus” fosh etilgan hisobi, so‘ng uni ur kaltak-sur kaltak bilan imzo qo‘ydirilar va bechora otib tashlanardi.”

Mahbuslar shavqatsiz qiynoqlarga solinar, kaltaklanar, boshqalar uchun ko‘rsatmalar berishga majbur qilinganlar. Ana shunday yo‘l bilan olingan qandaydir ko‘rsatmalar asosida yangidan ommaviy qamoqqa olishlar bo‘lgan. 100-150 kishi bir xonaga xaydab kelib, ularning barchasini yuzlari devorga qaratib qo‘yilgan, bu mahbuslar talab qilinayotgan ko‘rsatmalar bergunga qadar o‘tirishga va uxlashga ruxsat berilmagan. Xonaga yozuv stoli va yozuv-chizuv uchun kerakli narsalar qo‘yilgan. Ko‘rsatma berishni xoxlaganlar o‘zlari yozib berganlar, shundan keyin ularga uxlash uchun ruxsat berilgan. Tergovchilar kim ko‘p urib pachoqlash bo‘yicha o‘zaro musobaqalashganlar. Agar tergovchi kuniga biron bir mahbusni o‘z “aybi”ga iqror qildirishni uddalay olmasa, u aybdor hisoblangan. Ammo qanday usul bilan ko‘rsatma olinganiga erishgani bilan qiziqmaganlar.

Tergov ishlari bo‘yicha ayblangan qamoqqa olinganlar miqdori 1937 yilda Ittifoq bo‘yicha 936750 kishi O‘zbekiston SSR bo‘yicha 14873 kishi hibsga olingan, 1938 yilda esa Ittifoq bo‘yicha 641762 kishi, O‘zbekiston SSR bo‘yicha 20641 kishi qamoqqa olingan. 1939 yili esa O‘zbekiston SSR bo‘yicha 695 kishi qamoqqa olingan.

O‘zbekiston va Tojikiston xalqlari ustidan o‘lim tegirmonini aylantirgan jallodlardan biri 1898 yilda Omsk shahrida tug‘ilgan Nikolay Andreevich Zagvozdin degan kishi bo‘lgan. Uning Tojikiston ichki ishlar xalq komissari bo‘lib ishlagan davrida, faqat 1938 yilning o‘zida, uning shaxsan bergan ko‘rsatmalari

asosida qamoq joylarida tashkil etilgan azoblash uslubi oqibatida 1578 kishi sudgacha yetmasdan o'lib ketgan. "Ejovchilik" 1938 yilgacha davom etdi. Hatto Dzerjinskiy davrida CHKda xizmat boshlig'i davlat xavfsizligi eski ofitserlari qamoqqa olindi, yoki ishdan quvildi. Mamlakat bo'ylab josuslarga qarshi kurash kompaniyasi avj oldi.

Targ'ibot-tashviqot tufayli o'zligini yo'qotgan, o'z hayoti uchun qo'rqib qolgan odamlar o'z qo'shnilari, birga ishlayotganlari va hatto oila a'zolari ustidan xilma-xil, dahshatli, yolg'on, uydirma ayblar to'qib NKVD organlariga murojaat qilganlar. NKVD organlari oldida navbat kutib tezroq chaquvni yetkazish uchun sabrsizlik bilan shoshilishganlar ko'p bo'lgan. Terror millatni buzishga, uni degradatsiya bo'lishiga olib keldi. Albatta, Stalin qatag'on qilinganlar orasida ko'plab aybsizlar borligini bilardi. Ammo uning fikricha, qurbonlar kampaniyasi ko'laminig bu darajada bo'lishi muqarrar edi. U ham daraxtga bolta urilganda uning barglari uchib ketishini yaxshi bilgan. Terror faqat kommunistlargagina qarshi qaratilmadi. Ular bilan birga millionlab partiyasiz xizmatchi va ishchilar, dehqonlar, xunarmandlar-kosiblar, ruhoniylar qamoqqa olingan va konslagerlarga surgun qilingan. Ular tekin ishchi kuchlari safini to'ldirib turgan.

1937 yil oktyabr oxirida Ejov pochta va telegraf xalq komissari qilib tayinlanib, NKVD boshlig'i qilib Beriya tayinlanadi. Ikki hafta o'tib Ejov izsiz va abadiy yo'q bo'ladi. U o'zining bir qancha yordamchilari bilan birga otib yuboriladi. Makr o'z ishini qilgan. Bir necha yil davomida mamlakat aholisini 3 foizdan ko'prog'i qamoqqa olingan, mamlakatning deyarli har bir 15 oilasidan biri "xalq dushmani" sifatida qatag'on tig'idan o'tkazilgan.

Uchlikning vaqtinchalik kotibi vazifasini bajarib turgan P.Blinkovning aytishicha, joylardan kelgan bayonnomalardagi mahbuslar ishlarini ko'rib chiqish uchun bir daqiqadan uch daqiqagacha vaqt ajratilgan. Ayrim hollardagina besh daqiqagacha vaqt ajratilgan. Har bir "Uchlik" majlisida 500-600 tagacha ish ko'rilib, shuncha odamlar taqdiri hal qilinib yuborilgan. "Uchlik" majlislarining birida P.Blinkovga o'zbek mahbuslari ishi ko'rilayotganda tarjimonlik qilish vazifasi yuklatiladi. Bir soat ichida 50dan oshiq ish ko'riladi. Ayblanuvchilar

asosan chet qishloqlik odamlar bo‘lib, ruschani mutlaqo tushunmasliklari bilinib turardi. “Uchlik” majlisini boshqargan Apresyan va Leonov, ular yonida Romanov degani ham bor edi, sudlanuvchilar olib kelinganidan boshlab aybnomani o‘qib so‘kishga tushib ketardlar. Onasi ham, bolasi ham, bir “soq joyi” ham qolmasdi. O‘zlari bundan huzur qilib qolardilar. Savol-javob ham, tarjima qiladigan narsa ham bo‘lmadi. Sudlanuvchilar bu so‘kish va haqoratlarni tushunishmasdan qarab turishar, so‘ng olib chiqib ketilardi. Birozdan so‘ng ular otib tashlanaverardi.

O‘zbekiston Ichki ishlar xalq komissarligi kotibiyatining boshlig‘i P.S. Martinenko degan shaxsning guvohlik berishicha, Apresyan va Leonovlar har bir hodimga qancha odam qamaganligi va qanchasidan “aybini tan oldirish”, hamda “boshqalarga chiqish”ga erishganligiga qarab baho berganlar. Do‘ndirib bajarganlar maqtalgan, qolganlari esa jazolangan. Oqibatda xodimlar o‘rtasida o‘ziga xos, kim o‘zarga ishlash musobaqalari boshlanib ketgan.

“Apresyan Moskvadan qaytgach,-deydi u:-Boshqalarning minglab odamlarni qamaganligini eshitib uyali ketdim, bizning “byudjet” juda kamligidan qizarib o‘tirdim, deb gapirdiyu. qamoqqa olish uchun adreslar byurosidan yoki saylovchilar ro‘yxatini olib, navbat bilan qamashga kirishish kerak, deb topshiriq berdi. Shu asosda, masalan, Xorazm viloyati bo‘yicha mas‘ul Vasilev deganning axborotiga ko‘ra Oq-Darband degan qishloqda birorta erkak zoti qoldirilmasdan qamalgan ekan. Faqat, “qo‘poruvchi, xorij josusi, aksilinqilobiy tashkilot a‘zosi” degan so‘z qo‘shilsa ayb ayb etarli bo‘laverardi. Masalan, Samarqanddan tarvuz urug‘ining yangi sortlari haqida ma‘lumotlarni Angliya agentlariga berib yuborishda ayblanib yuzlab odamlar qamoqqa olindi. Vaholanki, tarvuz urug‘ining yangi sortlari sir saqlangan emas. Angliya esa umuman tarvuz yetishtirmaydi. Yoki bo‘lmasam, Qo‘qon va Buxoro bir guruh yahudiylar Muhammad payg‘ambarning qabrini ziyorat qilish, Makkaga hajga borish uchun ketishib, josuslik materiallarini chet el agentlariga etkazganlar degan ayb qo‘yilgan. Ulardan birqanchasi qamoqqa olinib, shu ayb bilan yo‘q qilib yuborilgan. Hech kim, axir yahudiylar Muhammad payg‘ambarga sig‘inib, sajda qilmaydilar, ular hajga ham borishmaydi, bu taqiqlangan, deb qiziqmaydi. Aksincha, bu odamlarni zor qaqqshatib «yemagan

somsasiga pul to‘lattirgan»lar mukofotlarga tavsiya etiladilar.»

Qatag‘on qilinib mehnat tuzatuv lagerlari va mehnat tuzatuv kolonnalarida qamoq jazosini o‘tayotganlar misli ko‘rilmagan yomon, achinarli ahvolda hayot kechirishgan. Ular kasallikdan, ochlikdan, tashnalikdan, zulm va qiynoqlardan, izg‘irin sovuqdan, tinka-madori quritadigan og‘ir mehnatdan nogiron bo‘lib qolgan, o‘lib ketganlar ko‘p bo‘lgan. GULAG lagerlaridagi mahbuslarda o‘lim yuqori darajada bo‘lgan. Ayniqsa 1937-1938 yillarda va urush davrida mahbuslar o‘limi yuqori bo‘lgan. 1937 yil GULAG lagerlarida 908624 mahbus bo‘lib, ulardan 25375 kishi (2,75 foiz) vafot qilgan. 1938 yilda esa 1156781 mahbusdan 90546 kishi (7,83 foiz) vafot etgan. Ular orasida o‘zbekistonliklar, o‘zbeklar ham ancha bo‘lgan.

«Katta terror» avjiga mingan 1937 yil 1 oktyabrdagi ma‘lumotning 1-qismiga ko‘ra, SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi lagerlari bo‘yicha 20 954 o‘zbek mahbusi bo‘lgan. Ularning 2 643 nafari Baykal-Amur lagerida, 1 923 nafari Volga-Moskva qurilishi (Dmitrov lageri)da, 1 554 nafari Uglich-Ribinsk qurilishi (Volga lageri)da, 1 673 nafari Oq dengiz-Boltiq lagerida, 687 nafari Komi ASSRdagi Uxtim lagerida, 543 nafari Moldava ASSRdagi Tem lagerida, 2 247 nafari Vladivostok lagerida, 643 nafari Novosibirsk lagerida, 3 029 nafari Toshkentdagi O‘rta Osiyo lagerida qamoq jazosini tortgan, og‘ir mehnat qilgan edi.

Mazkur ma‘lumotning 2-qismida esa o‘zbeklardan 854 kishining qaraganda, 12 kishining Prorva, 23 kishining Norilsk, 1 199 kishining Vyazemsk, 69 kishining Kaluga, 250 kishining Stalin temir yo‘l bekati, 96 kishining Janubiy-SHarqiy Gavana, 47 kishining Podolsk aerodromi, 70 kishining Samara, 655 kishining SHimoliy-SHarqiy lagerlarda, jami 3 275 o‘zbekning bo‘lganligi qayd etilgan.

1939 yil 1 yanvarga oid ma‘lumotga qaraganda NKVD mehnat tuzatuv lagerlarida qamoq jazosini o‘tayotganlar orasida 23 855 o‘zbek bo‘lgan. Bu mahbuslar aksar hollarda josuslik, terrorchilik, diversiya, vatanga hiyonat, trotskiychi-zinovevchilik, vatan xoini oilasining a‘zosi bo‘lishlikda ayblanganlar. Ular OGPU-NKVD organlari, jumladan, NKVD maxsus kengashi, NKVDning

maxsus «uchlik»lari, Adliya xalq komissarliklari tomonidan hukm qilingan.¹

“Katta terror” davrida ya’ni 1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvargacha bo’lgan vaqtda O’zbekiston bo’yicha faqat sobiq “quloqlar”dan 5924 kishi, jinoyatchilardan 1679 kishi, “sovetlarga qarshi unsurlar”dan 3097 kishi, jami 10700 kishi qamoqqa olingan. Ulardan 3613 kishi 1-toifa bo’yicha otuvga, 7087 kishi 2-toifa bo’yicha 8-10 yil muddat bilan qamoq jazosiga, mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. 1-toifa bo’yicha otuvga hukm qilinganlarning 1376 nafari sobiq quloqlar, 952 nafari jinoyatchilar va 1285 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo’lgan. 2-toifa bo’yicha hukm qilinganlarning 4548 nafari sobiq quloqlar, 727 nafari jinoyatchilar, 1812 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo’lgan.²

1938 yil oktyabr boshlarida Toshkentda SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor yig’ilishlari bo’lib o’tadi. Ularda ko‘plab partiya, davlat, jamoat arboblari, ayniqsa ziyolilar, adib, shoirlar, fan va oliy o‘quv yurtlari xodimlari, O‘zbekistonning taniqli kishilarining ma’lum vakillari otuvga, 10 yil, 8 yil qamoq jazosiga hukm qilinganlar. Oliy jazoga hukm etilganlar o’sha hukm e’lon qilingan kunning o‘zidayoq otib yuborilganlar. Ular orasida o‘zbek xalqining asl farzandlari Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Rahim Inog‘omov, Usmonxon Eshonxo‘jaev va boshqalar bo‘lgan. Partiya xodimlaridan Islombek Arslonbekov, Sulton Segizbaev, Bo‘taboy Dadaboev va boshqalar ham otuvga hukm etilganlar.

«Katta terror»ning yakun topishi 1938 yil noyabr oyiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda mana shunday minglab qatag‘on qurbonliklari ro‘y bergani bois, u tarix sahifalarida mudhish, alamli, xasratli fojia sifatida “Katta terror” nomini oldi, va Sovet davlatining insoniyatga qarata, unga berilgan eng oliy qadriyat-inson umriga nisbatan qilingan kechirib bo‘lmas gunohi sifatida qoldi.

¹ Shamsutdinov R. Qatag‘on qurbonlari 2-kitob Toshkent “Sharq” 2007 B-20-24

² Shamsutdinov R, Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. Toshkent ”Sharq” 2013 B-454-455

III bob. Ommaviy qatag'oning Namangan viloyatidagi fojialari:

Qatag'on qurboni Nuriddin Qoriyevning hayoti va taqdiri

Namangan, Andijon, Farg'ona, Qo'qon mehnatkashlari uni yaxshi bilishgan, Samarqand, Toshkent, Dushanbeda ham hurmat bilan esga olishgan. Uning ko'p qirrali mehnati chuqur iz qoldirdi. Uning mehnatsevarligi, shijoati hamkasblarida buyuk hurmat uyg'otdi. U Namangandagi kommunistik bolalar boshlang'ich tashkilotida pioner, Turkiston Qizil armiyasining 5-o'qchi polkida faxriy askar, Namangan shahar militsiya boshqarmasida militsiya hodimi bo'lgan. Namangan uyezd shahar ijroiya komiteti bo'limi mudiri, mas'ul kotib, Sardoba dahasi Oqsoqoli, shahar ijrokom raisi muovini, revkom raisi, O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti mas'ul kotibi kabi mas'uliyatli lavozimlarda faoliyat olib borgan. Tojikistondagi paxta tozalash zavodida mohir ishchi hodim bo'lgan va Tojikiston ASSRning markaziy idoralarda bir qancha mas'uliyatli ishlarda ishlagan. Uning bajargan ishlarini, ishlagan, egallagan mansab lavozimlarni sanash qiyin, sanasak juda ham ko'p. Qayerda murakkab vaziyat, jasorat ko'rsatish to'g'ri kelsa, partiya uni jo'natardi. U qayerda bo'lmasin o'ziga yuklatilgan vazifalarni mas'uliyat bilan bajargan. Bu fidokor, tinim bilmas inson - Nuriddin Qoriyev Xolmirzayevich.

U 1893-yilda Namangan shahrining Sardoba dahasida, Sarimsoq dodhoh mahallasida, bog'bon oilasida tug'ilgan. Uning yoshligi qiyinchilik yillariga to'g'ri keldi. U mana shu yillarda juda ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirdi va toblandi. Boshlang'ich ta'limni 3 yil o'qidi va zamon zayli bilan qiyinchilik yillari tufayli yoshlikdan og'ir mehnat qilishga majbur bo'ldi. O'qish imkoni oilaga ko'maklashish, hayot uchun mehnat qilish bilan almashindi. U 8 yoshdan boshlab Namangan shahridagi yog' zavodida yuk tashuvchi, paxta zavodida yordamchi, qurilishda qora ishchi, bozorda aravakash va hatto qorovullik qilgan, mardikorlik ishlariga ko'p yollangan.

Nuriddin

Qoriyevning otasi Xolmirzaqorini asosiy kasbi bog'bon bo'lgan, qish fasllarida o'tiradigan kichkina choyfurushtlik do'koni ham bo'lgan. Xolmirzaqori o'z kuchi va oila kuchi bilan yoz fasllarida doim bog'bonlik qilib oilalarining shuni

orqasidan boqib kelgan. Xolmirzaqorini bog'bonchilikdan topadigan daromadi juda oz bo'lib, boshqa tarafdin hech qanday daromadi bo'lmay, bolalarini turmush va tarbiyasida iqtisodiy qiyinchilik bo'lgan. Shu oila ichida bo'lgan Nuriddin Qoriyev 14 yoshidan boshlab o'z kuchi bilan ishlab umr o'tkazmoqqa kirishgan.

Chunonchi 1908-yildan 1912-yil oxirlarigacha bo'lgan muddatda 5 yildan ortiqroq vaqtda qora ishchilikda ishlagan. Shu muddat ichida yoz fasllarida imoratlarda binokor suvoqchilari bilan suvoqchilik qilgan. Qish fasllarida esa Namanganda bo'lgan Nizomxo'ja o'g'li hamda Musaxon o'g'lining paxta zavodlarida qora ishda mashinadan tozalanib chiqqan paxtani prisga tashib berish ishida va paxta tozalaydigan mashinaga paxtani yetkazib berish ishida ishlagan.

1908-yildan boshlab 1912-yilning oxirigacha yoz fasllarida binokor suvoqchilik qora ishida birga ishlagan kimsalar:

1. Usta Xolmirza
2. Usmonboy Isroilboy o'g'li
3. Ahramboy Ahmadboy o'g'li
4. Muhammadjon Mulla Abdullo o'g'li
5. Nishonboy Yo'ldoshboy o'g'li
6. Bobomirzo Ahmad Oxun

1908-yildan 1912-yilgacha qish fasllarida zavodda birga ishlagan kishilar:

1. Muhammadjon Abdullaboyev
2. Usmonboy Isroilboy o'g'li
3. Muhammadali Abdulqodirboy o'g'li
4. Ahmadjon Mulla Abdulla o'g'li
5. Abduxalil Yo'ldoshboy o'g'li
6. Ahmadjon Abduqodirboy o'g'li

1912-yilning oxirlarida 19 yoshga kirgan vaqtida otasining inisi gazmolfurush bo'lgani uchun uning tashabbusi bilan do'kon qilib va uning kafolatida gazmol olib mayda sotiqchilik qilgan. Ammo do'kondorchilikni eplay olmagan. Qarzdor bo'lib, do'koni kasodga uchragan. 1913-yilning oxiridan

boshlab Namangan uyezdidagi Chortoq volosti boshqaruviga ishga kirgan. ¹1914-1916 yillar ichida o'zbek yozuvini o'rganadi, 1916-1917 yillarda volost oqsoqolini mirzasi bo'lib ishlaydi.²

1916-yil. Aholini mardikorlikka safarbar etish haqidagi Chor hukumatining qarori mahalliy aholi ichida norozilik alomatlarini keltirib chiqardi. Ayniqsa, bu murakkab vaziyat Namangan uyezdining qator volostlarida kuzatildi. Yangiqo'rg'ondagi qo'zg'olonni bostirish uchun shaxsan volost pristavi Blat boshchiligida askarlar yetib keldi. Xo'jashurkent qishlog'idagi qo'zg'olonni bostirish vaqtida qo'zg'olon tashkilotchilaridan biri Nuriddin Qoriyev hibsga olindi va og'ir qiynoqlarga solindi. Askarlar uni tig'li va og'ir qurollar bilan kaltaklashgan. Qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostirilgan.³

O'sha davrda Nuriddin Qoriyev o'zining atrofidagi odamlardan juda ko'p adolatsizlik va xo'rliklar ko'rgan. Namanganga Oktabr inqilobi to'g'risidagi xabarlar kelgan vaqtda, u bu yangi tuzum jamiyat hayotida shuningdek, uning butun hayotida yangi o'zgarishlar qilishiga ishongan. Lekin vaqt ko'rsatdiki, u juda ham qattiq yanglishdi. Mana shu tuzum uning sidqidildan, xalq farovonligi yo'lida qilgan xizmatlarining natijasini mudhish qatag'onlik bilan tugatdi.

1918-yil boshida Kommunistik partiya a'zosi bo'ldi. Shu vaqtdan boshlab sovet hokimiyatini o'rnatish uchun bo'lgan og'ir kurashlar uni bir joydan ikkinchi joyga ko'chib ishlashga majbur etdi va u qayerga bormasin xalq ishida o'zining jasurligi va matonatini namoyon qildi. Partiya ko'ngilli otryadining oddiy askari lavozimidan Namangan shahar militsiya boshlig'i darajasigacha ko'tarilgan. Qizil armiyaning 17-o'qchi guruhida xizmat qilgan. Shaharni bosmachilar hujumidan himoya qilib, aholi orasida sovet hokimiyatini o'rnatish haqida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borgan. Bu ish juda xavfli va murakkab edi. Sovet hokimiyatini yoqlab chiqqanlarni bosmachilar otishgan. U besh nafar safdoshi

¹ Namangan viloyat davlat arxivi 263-jamg'arma , 1-ro'yxat , 3-ish , 24-varoq

² Namangan viloyat davlat arxivi 263-jamg'arma , 1-ro'yxat , 1-ish , 6-varoq

³ Rasulova Lola. "Красный террор" не щадил никого // Наманганская правда. 2010 № 51 - В 5

bilan Pishqo'rg'on qishlog'iga borgan. Ular qishloqma-qishloq yurib, sovet hokimiyati siyosatini tushuntirgan, bosmachilikni tugatishga chaqirgan. Uni Nanay, Xonobod, sobiq Pishqo'rg'on qishloqlarida olib borgan tashviqotlaridan biri saqlanib qolgan. “ Biz targ'ibotchilar Makayev, Qoriyev, Mahzumov, Nizomovlar qishloq jamoalarda bo'lib, turli umumiy yig'ilishlarda, Sovet hokimiyati va uning tushunchalari haqida ma'lumot berdik. Aholi bundan rozi hamda Sovet hokimiyatini xursandchilik bilan qabul qilmoqda.

Nuriddin Qoriyev Namangan, shuningdek, Farg'ona viloyatida bosmachilik harakatini bostirish ishlarida faol ishtirok etdi. Nuriddin Qoriyev haqidagi hujjatlarni ko'zdan kechirar ekanmiz bosmachilik harakatini bostirish bilan bog'liq quyidagi hujjat e'tiborni tortadi:

Namangan uyezdidagi firqali va firqasiz ishchilarga!

Qimmatli o'rtoqlar!

Olti yillik bosmachilar zabtidan Farg'onamizda qanchadan-qancha ishchi yo'qsul dehqonlar o'lub, va qanchalari u muttaham bosmachilar jabridan, talashidan ochlik degan mudhish bir baloga uchrab, natijada to'rt yuz ellik ming (450 000) xalq och-yalang'och ko'chalarda sarson bo'ldi, ham Farg'ona xo'jaligi u muttaham xoinlar tomonidan barbod etildi.

Man bu baxtsizliklarni ya'ni Farg'ona eli, Farg'ona kambag'allari, dehqonlarining tortmoqda bo'lg'on azoblarini ko'rib, ishchi dehqonlar hukumati shundoq yomonliklarini kechib, bu nohaq qon to'kuvchi o'g'rilarga necha marta afv umumiy e'lon qilib gunohini o'tsa ham bir nechalari hukumatning qilg'on takliflariga bo'ysunmasdan yanada qonx'orlik, talaguchiliklarini qilovurib hamisha dehqonlarni zaharlik tirnoqlari bilan ezib yurdilar.

Sho'rolar hukumati o'zi chindan mehnatkashlar hukumati bo'lg'oni uchun, u muttahamlarni qilg'on zulmlariga chidamay, bu yil iyun oylaridan boshlab bosmachilarga qarshi eng oxirgi kurash e'lon qilib, Farg'ona muzofotidagi sho'rolar muassasalarini birlashtirish uchun Farg'ona muzofotida “Harbiy inqilobiy sho'ro” tashkil qilib bunga Farg'ona front boshlig'i o'rtoq Todorskiy, Turkiston alohida sho'basining boshlig'i o'rtoq Selonuf ham Farg'ona muzofoti

inqilobiy qo'mitasining raisi o'rtoq Alixo'jayev tayin qilindi. Bu hay'at 11-iyundan boshlab Andijon shahari bosmachilarning eng kuchli joyi bo'lgani uchun avval shu yerdan ish boshlash uchun harbiy inqilobiy sho'ro tuzib ishga kirishdi.

Qimmatli o'rtoqlar!

Bugun bizning bo'ynimizda juda og'ir yuklar qo'yilg'ondir. Chunonchi Andijonda Qozoqboy, Marg'ilonda Ahmadpolvon, Xo'qandda Islom va Qoraboy, Mirza Umar, Namanganda Boston, Boydada, Boytuman ham Omonpolvonlarni yo'q qilish va bechora elni qutultirishdir. Hozir biz qahramon qizil qo'shin va qizil militsiyalarimiz g'ayratlari va markazdan kelgan siyosiy ishchilarimiz ham, mahalliy mas'ul va g'ayri mas'ul ishchilarimizning tashabbuslari soyasida bir qanchalari hukumatga berilib o'tdilar. Jumladan beri Namangan uyezdidagi eng katta qo'rboshilardan sanalgan Omonpolvon bo'lib, u ham qizil askar va qizil soqchi (militsiya) va sizning urunishingiz bilan qo'lga olunib, harbiy inqilobiy sudda o'lim jazosini oldi.

Namangan uyezdida shu qonxo'r bosmachilar muttahami bo'lgan Omonpolvon tomonidan ezilib kelgan qishloqlilar qutuldilar, ham bosmachilar orasida qishloq xo'jaligining taraqqiy etishiga to'siq bo'lib yurgan Dadaboy ham g'ayratlarimiz ostida hukumatga berildi. Shu soyada bechora dehqonlar osoyishta yashamoqqa kirishdilar. Demak siz bukun ikki katta falokatdan qutuldingiz.

Aziz o'rtoqlar! Bundoq falokatlardan qutulganingizdan quvonib tabrik etganim bilan barobar qilg'on xizmatlaringizga men chin ko'nglim bilan Farg'ona muzofoti inqilobiy qo'mitasining harbiy inqilobiy sho'rosi tomonidan rahmatlar aytaman. Shuning bilan yana umid qilib qolamankim, yana shu g'ayratlaringizni da'vom ettirib yordam kutib yotgan ezilgan dehqonlarni falokatli bosmachilar qiynog'idan qutultirgaysiz.

O'rtoqlik salomi bilan Farg'ona muzofot inqilobiy qo'mita ham muzofot harbiy sho'rosining a'zosi: Alixo'jayev¹

¹ Namangan viloyat davlat arxivi 263-jamg'arma , 1-ro'yxat , 3-ish ,25-26-varoq

Nuriddin Qoriyev bosmachilik harakati tugatilgandan so'ng urushdan vayron bo'lgan xo'jaliklarni tiklash ishlariga boshchilik qilgan. Qo'limizdagi o'sha davrga oid hujjatlar orasida Nuriddin Qoriyev taqdiriga daxldor, uning rafiqasining arizasi bor. Unda Nuriddin Qoriyevning hayoti va faoliyati haqida quyidagi qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Andijon oblast ijroiya komiteti raisi P.Q.Qayumovga

Namangan shahar 1-Xiva ko'chasi, tupik 6, 5-uyda yashovchi Sharifa Qoriyevadan

A R I Z A

Turmush o'rtog'im Nuriddin Xolmirzayevich Qoriyevning ijtimoiy-siyosiy faoliyatini aks ettiruvchi hujjatlar jamlangan papka (xat jild) larni varaqlar ekanman, ko'zlarimdan beixtiyor yosh keladi. Buning sababi shundaki, u kishi mehnat faoliyatini 1918 yildan boshlab, fidokorona mehnat qilgan edi. Nuriddin Qoriyev dastlab, Namangan uyezdida, Farg'ona viloyatida, keyinchalik O'zbekiston hukumati a'zosi sifatida Markaziy Ijroiya Komiteti raisi muovini, kotibi, Tojikiston SSR Markaziy ijroiya komitetida mas'ul lavozimlarda ishlab yurgan kezlari o'zining bor kuchi, bilimini, hatto jonini xam ayamagan. Shuncha yelib-yugurib, sidqidildan xizmat qilgan bo'lsa-da, lekin hayoti fojeali yakun, ya'ni 1937- yili unga tuhmat bilan "Xalq dushmani" degan tamg'ani bosib, O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligining mash'um "Uchlik" hukmiga binoan 13-noyabrda otib tashlangan edi.

Keyinchalik haqiqat qaror topib, 1937- yil 13-noyabrdagi turmush o'rtog'im Nuriddin Xolmirzayevich Qoriyevga nisbatan asossiz qo'zg'atilgan jinoiy ish O'zSSR Oliy Sudi tomonidan qayta ko'rib chiqilib, 1958-yil 28-iyuldagi qabul qilingan qaroriga asosan oqlangan edi.

Endi men turmush o'rtog'imning 1918-yildan 1937-yilgacha, ya'ni qamoqqa olingungacha bo'lgan davrlarda sovet hokimiyati idora organlardagi faoliyati to'g'risida to'xtalib o'tmoqchiman:

1918-yil yanvar oyidan 1919-yilgacha Namangan shahrida tuzilgan jangovar firqa drujinasida xizmat qilib, o'sha davrlarda sobiq Namangan uyezdi hududida harakat qilgan bosmachi galalarini tor-mor qilish janglarida faol ishtirok etgan. Bosmachi to'dalariga Omonpolvon, Madaminbek Boytuman xo'ja, Rahmonqul, Orzumat, Yoqubboy, Boyoz va boshqa kallakesar qo'rboshilar boshliq bo'lgan.

1919-yildan Kommunistik firqa topshirig'iga binoan Qizil Armiya qismlarida partkom lavozimida 1920-yil fevral oyigacha ishlagan. Masalan, Namangan shahrini bosmachi to'dalari hujumidan himoya qilgan 17-sovet polkining 3-rotasida jon fido etib xizmat qilgan va hokazo.

1920-yilning fevral oyidan dekabr oyigacha Namangan harbiy komissariatida siyosiy xizmatchi-tashviqotchi bo'lib faoliyat yuritgan.

1920-yil dekabrda bo'lib o'tgan Namangan shahar uyezd firqa konferensiyasi (qurultoy) da Nuriddin Qoriyev Ijroiya byuro a'zosi va tashkiliy bo'lim mudiri etib saylangan, keyinchalik Namangan uyezd-shahar Kommunistik firqa qo'mitasi mas'ul kotibi bo'lib ishlagan. Ushbu lavozimda u 1921-yil iyulgacha faoliyat yuritgan. 1921-yilning iyul oyidan to oktyabr oyigacha Namangan uyezdining uyezd-shahar ijroiya komiteti raisining o'rinbosari etib saylangan.

1921-yil oktyabr oyidan esa Farg'ona viloyati hududida bosmachilik harakati avj olganligi sababli ijroiya komiteti organi tugatilib, o'rniga inqilobiy komitet (revkom) tuzilib, Nuriddin Qoriyev Qo'qon uyezd shahar revkomining raisi etib tayinlangan, shu bilan u bosmachilarga qarshi kurash olib boruvchi "Siyosiy uchlik" idorasining raisi vazifasini ham bajargan edi. (1922-yil 12-noyabrda berilgan 6492 raqamli mandat). Unga ko'ra "Nuriddin Qoriyevga Namangan uyezdida bosmachilarga qarshi kurashuvchi qo'shin qo'mondonligi va alohida bo'lim (osob.otdel) bilan hamkorlikda bosmachilarning qolgan-qutganlarini batamon tugatish uchun keskin choralar qo'llash ishlarida ishtirok etishga haqlidir, bosmachilardan tozalangan hududlarda sovet hokimiyatini o'rnatishni mustahkamlash ishlarida faol ko'maklashishga mas'uldir", - deya imtiyoz berilgan.

Papkalarda saqlanayotgan boshqa hujjatlarda ham quyidagi jummalarni o‘qish mumkin: "Nuriddin Qoriyev faoliyat olib borayotgan bo‘limlarda shtat birligi ozchilikni tashkil etib, texnik xodimlarni yo‘qligiga qaramasdan, u shu kemptiklarni yakka o‘zi to‘ldirib, ikki va undan ko‘proq xodimlar bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarni uddalar, bo‘lim oldida turgan ulkan vazifalarni bor kuch va mahoratini ishga solib amalga oshirardi".

Uyezd hududida bosmachi galalari izg‘ib yurganiga qaramasdan Nuriddin Qoriyev uyezdning eng chekka joylariga xizmat safari uyushtirar, joylarda hukumatni ayrim nopok vakillari o‘z amallarini suiste‘mollik qilayotgani va jiddiy kamchiliklarini aniqlab, ushbu shaxslarga nisbatan qonuniy javobgarlikni amalga oshirgan.(1921-yil 24-sentyabrda berilgan 2756 raqamli guvoohnoma).

1922 -yilning bahorida Nuriddin Qoriyev Namangan uezdida bosmachilar tomonidan jiddiy zarar keltirilgan qishloq xo‘jaligi sohasini qayta tiklash bo‘yicha favqulodda vakil sifatida juda katta ishlarni amalga oshirdi. Uning fidokorona sayi harakati tufayli uyezdga qishloq xo‘jaligining ko‘plab sohalari, ayniqsa, paxtachilik ancha rivojlandi.(1922-yilda Nuriddin Qoriyevga berilgan guvoohnoma, mandat va ma‘lumotnomalar). 1922-yilning iyul oyida Nuriddin Qoriyev Turkiston komfirqasining Farg‘ona obkomi tomonidan Andijon uyezd shahar komfirqa komitetiga ishga yuborilgan, u bu erda 1923-yil iyul oyigacha tashkiliy bo‘lim mudiri hamda bosmachilikni tugatish bo‘yicha uchlik raxbari lavozimlarida ishlagan edi. 1923-yilning iyul oyida Nuriddin Qoriyev bosmachilikni tugatish bo‘yicha Farg‘ona viloyati siyosiy uchligida hamda Namangan uyezdida bosmachilikni tugatish ishlari bo‘yicha vakil va Namangan uyezd revkomi (inqilob komiteti)ning raisi lavozimlarida sidqidildan mehnat kilgan. Uning Qizil armiya maxsus qismlari va militsiya otliq eskadroni bilan hamkorlikda joylarda bosmachi to‘dalarni batamom tugatish bo‘yicha ishlab chiqilgan rejasiga asosan bosmachilik harakatiga uzil-kesil nuqta qo‘yildi. Masalan, 1923-yil 11-oktyabrda bosmachilarning vaxshiy qo‘rboshilaridan biri Omon Polvon ular tomonidan qo‘lga olinib, odil sudga topshirilgan. Huddi shunday qismat yana bir qo‘rboshi Yoqubbek va uning kallakesarlari boshiga tushdi. Chotqol tog‘ tizmalarida

yashirinib yurgan Boyozbek qo‘rboshi va uning yigitlari ham shu tariqa qo‘lga olinib, tegishli jazoga tortilgan. Nuriddin Qoriyev bunday faoliyati haqida turli-tuman guvohnomalar, mandatlar, ma’lumotnomalar, buyruqlar va boshqa shu kabi hujjatlar guvohlik beradi.

1923-yilning oktyabr oyiga kelib Namangan uyezdida bosmachi galalar terror etilganidan so‘ng, Namangan uyezd-shahar kengashi syezdida Nuriddin Qoriyev Namangan uyezd shahar ijroqo‘mi raisi etib saylandi. U bu vazifada 1925-yil boshlarigacha ishlab, shu bilan birga 1919-yildan 1924-yillar mobaynida uyezd Kengashi syezdlariga, Namangan viloyat kengashi syezdlariga delegat etib saylangan, oblevkom, obkom, Turkiston Markaziy ijroiya komiteti a‘zoliciga saylangan edi. Bu haqida quyidagi hujjatlar shoxidlik berishi mumkin: Turkiston Markaziy ijroiya komiteti tomonidan 1923-24 yillarda berilgan 91-raqamli a‘zolik bileti, oblevkomning 17-raqamli a‘zolik bileti, Namangan uyezd revkomining 3-raqamli a‘zolik bileti - 7-fevral 1919-yil, Turkiston Mehnat Komissarligining 1919-yil 29-oktabrda berilgan a‘zolik bileti, 1920-yil 20-sentabrda Turkiston Markaziy Ijroiya komiteti tomonidan berilgan 118-raqamli azolik bileti). Xullas, bu kabi hujjatlarning son-sanog‘i yo‘q.

1924-yil Namangan uyezd-shahar kengashi syezdida N.Qoriyevning samarali va shavkatli faoliyati munosib taqdirlanib, unga "Mexnat Qahramoni" unvoni berilganligi haqida hujjat alohida ahamiyat kasb etadi. Bulardan tashqari Nuriddin Qoriyev bir necha Namangan harbiy qismlarining "Faxriy qizil askari", "Faxriy militsioner" turli idora va tashkilotlarning faxriy xodimi unvoniga sazovor bo‘lgan.

Namanganda bosmachilikka qarshi olib borgan qahramonona kurashini inobatga olib, unga shaxsiy mauzer (to‘pponcha) berilgan, hamda turli tashkilotlar, muassasalar, korxonalar, qishloqlar faollari tomonidan ko‘plab sovg‘a-salomlar bilan taqdirlangan.

1925-yil fevral oyida bo‘lib o‘tgan Turkiston ishchilar dehqonlari va Qizil Askar deputatlarining 1-Butun o‘zbek syezdida Nuriddin Qoriyev Farg‘ona oblastidan hal qiluvchi ovozga ega bo‘lgan delegat etib saylangan. (delegatlik

kitobchasi- №40). Bu syezdda u 1925-yil may oyida Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan SSSR Butun ittifoq 3-syezdigacha hal qiluvchi ovozga ega delegat etib saylandi. (1942 raqamli delegat bileti, 606 - raqamli ruhsatnoma).

1924-yil iyulda bo‘lib o‘tgan O‘zSSR Markaziy ijroiya komitetining 1-syezdidan Nuriddin Qoriyev Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi a‘zolariga saylanish bilan birga O‘zSSR Markaziy Ijroiya komiteti kotibi lavozimida faoliyat yuritgan. Bu lavozimda ishlab yurgan paytlarida Xorazmdagi Urganch, Xiva kabi joylarda xalq xo‘jaligini tiklash va mustahkamlash ishlarida bir necha bor faol ishtirok etgan. (1925-yil 7-iyuldagi 256 - raqamli guvohnoma, 1925-yil 16-iyuldagi O‘zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti tomonidan berilgan 4334 raqamli guvohnoma). Ushbu guvohnomalarda Nuriddin Qoriyev zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda mahalliy idoralar yaqindan yordam berishlari lozimligi ta’kidlangan.

1925-yil 8-fevralda O‘zbekiston Kommunistik Partiya Markaziy Komiteti Nuriddin Qoriyevni yer-suv islohotini amalga oshirish uchun Samarqand viloyatiga yubordi. Firqaning bu mas’ul topshirig‘ini a’lo darajada bajarganligi uchun u "Faxriy uchlik" bilan taqdirlanadi. (1925-yil 8-mart 170 - raqamli guvohnoma 1925-yil 22-dekabrda berilgan "Faxriy yorliq").

1926-yil 10-iyulda Nuriddin Qoriyev joylarda rayonlashtirish ishlarini o‘tkazish uchun Asht rayoniga yuborildi.(1926-yil 10-iyulda 10472 - raqamli guvohnoma).

1926-yilning 12-dekabrda bo‘lib o‘tgan Tojikiston ASSR Markaziy Ijroiya komitetining 1-sessiyasi majlisida Nuriddin Qoriyev Tojikiston ASSR Markaziy Ijroiya Komitet raisining o‘rinbosari etib tasdiqlandi. Bu lavozimdagi faoliyati davomida u Tojikiston xalq xo‘jaligini yuksaltirish borasida tinimsiz va samarali ish olib bordi. Bular haqida Nuriddin Qoriyevning shaxsiy fondiga tegishli bo‘lgan Andijon davlat arxivining Namangan filialida saqlanayotgan hujjatlar shoxidlik beradi.

1929-30 -yillarda Nuriddin Qoriyev Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg shahridagi firqa universitetida o‘qidi.

Qamoqqa olingunga qadar Nuriddin Qoriyev Ashxobod shahridagi davlat bankida iqtisodchi bo'lib ishlagan.

Yuqorida keltirilganlarni inobatga olib, hamda O'zSSR Oliy sudining 1965-yil 17-dekabr 144 D raqamli ma'lumotnomasiga binoan turmush o'rtog'im Nuriddin Qoriyevni jinoyati yo'q ekanligi va uni to'la-to'kis oqlanganligini hisobga olib, menga (1899-yilda tug'ilgan fuqaro Qoriyeva Sharifa) shaxsiy pensiya belgilanishida amaliy yordam berishingizni so'rayman. Chunki, men boquvchisiz qolganman. Kerakli hujjatlarni qo'shimcha ravishda ilova qilaman *deb ariza yozuvchi Sharifa Qoriyeva.*¹

Nuriddin Qoriyev sidqidildan qilgan xizmatlarining evaziga yuqorida keltirilganidek, ko'plab maqtovlarga, mukofotlarga sazovor bo'lgan. Quyida ulardan birini ilova qilamiz:

Namangan uezd shahar «Qushchi» tashkilotining 1924 yil 18-noyabrda N.Qoriev nomiga bergan 1996-sonli shahodatnomasida quyidagilar yozilgan:

«...Qoriy o'g'li qushchi, chorikor va mardikorlar tashkilotlarini kengaytiruvda va uni mustahkamlash va shuning barobarina mazkur tashkilotlarni erila ta'minlash va xo'jalik ishlarini quvvatlashda, bunda tashqari oxirgi vaqtlarda yo'q hisobiga etib qolgan paxtachilik ishini kutilmagan yaxshi natijalarga etkaruvida o'zining taqdir etiladurgon xizmatlarini ko'rsatdi. Xo'jalik maydonlarida qilgon xizmatlarini nazarda tutib 4-Qurultoy o'rtoq Qoriy o'g'lini «Mehnat qahramoni» deb e'lon qiluv ila barobar, hamma vaqt pok tutgan yo'lida qishloqdagi dehqon, mardikorlarni manfaati uchun xizmatni davom etuviga ishonib qoladur...»²

Qizil shahodatnoma

Leninchi yoshlar Namangan shahar
uyezd qo'mitasi tashkiloti

¹ Namangan viloyati o'lkashunoslik muzeyi materiallari

² Namangan viloyati davlat arxivi 263-fond 1-ro'yhat 1-ish 188-varoq

Berildi ushbu qizil shahodatnomani o'rtoq Nuriddin Qori o'g'liga. Shul to'g'ridakim bul o'rtoq Namanganda bir qancha yillar mas'ul o'rinlarda ishlab qaysi bir firqa – sho'ro tashkilotlarida o'zining g'ayrati va nihoyatsiz matonatining orqasida firqa rahbarlari va bosmachilar bilan bo'lgan kurashuvda va buzulgan xo'jalikni tuzatishda – qishloq ishchi dehqonlarini sho'rolar hukumati bilan tanishtiruvda, ayniqsa Leninchi yoshlar tashkilotini kuchaytiruvda firqa ta'sirini yoshkomlar orasida tarqatishda – qishloqlarda ilm va bilimdan ortda qolgan yoshlar orasida maorif ishlarini kuchaytiruvda, ko'p narsalarda ishladi. Yosh leninchilar ittifoqini har bir ishida zo'r fidokorona ishlar ko'rsatdi. Shuning uchun leninchi yoshlar tashkiloti ko'rsatgan ishlariga zo'r tashakkurlarni bildirib, hamma vaqt tinmay- charchamay ishchi dehqonlar hukumatida, ayniqsa yoshlar orasida ishlashiga umid qilib qolamiz. Lekin qayda bo'lsa ham leninchi yoshlar uyushmalarida ishlashiga chin dildan umid qilib qolamiz. Binobarin o'rtoq Qori o'g'lini muhr imzolar bilan tonuqlik qilinadur:

Namangan tuman qo'mitasi "Leninchi yoshlar" tashkiloti javobgar

Yozuvchisi: Yo'ldashev: imzo

Ijroiya byuro a'zolari:

1. Egamberdiyev : imzo
2. Abdulla Qayumov: imzo
3. Mavlonov: imzo

Pechat.

Ishchi-dehqon Qizil armiyasi Davlat Boshqarmasi tomonidan 1925-yil 4-martda SSSR MIK Prezidiumiga 22934 sonli xati bilan Namangan uyezd shahar ijroiya komiteti raisi, Butuno'zbek I Qurultoyida O'zbekiston SSR MIK ga saylangan va Markaziy Ijroiya Komitetining mas'ul kotibi bo'lib saylangan Nuriddin Qoriyevni "Jangovar Qizil Bayroq" ordeni bilan taqdirlash haqidagi O'z SSR MIK raisi Yo'ldosh Oxunboboyev, uning o'rinbosari Stroganov va MIK kotibi Aydarovlar imzosi bilan taqdim etilgan xat SSSR MIK Prezidiumi tomonidan ko'rib chiqilmagani va masala qaytarilgani qayd etilgan. Ushbu xatda

O'z SSR MIK va Turkfront Harbiy inqilobiy sovetining 1925-yil 10-apreldagi 1212 sonli xati bilan Nuriddin Qoriyevni orden bilan mukofotlash zarurligi iltimos qilingan. Xatga ilova qilingan hujjatda Nuriddin Qoriyevning buyuk xizmatlari sanab o'tilgan va uni "Jangovar Qizil bayroq" ordeni bilan taqdirlash maqsadga muvofiqligi ko'rsatib o'tilgan.

Nuriddin Qoriyev butun hayoti va faoliyatini partiyaga xizmat qilishga bag'ishladi. Namangan va Farg'ona viloyatlarida unga yuklatilgan vazifalarni mas'uliyat bilan bajardi. 1926-yil dekabrda u Tojikiston Markaziy ijroiya qo'mitasini rais o'rinbosari vazifasida 1929-yilga qadar ishlaydi. 1929-1930 yillarda Moskva va Sverdlovsk universitetlarida o'z bilimini oshirib qaytadi. 1930-yilga kelib Nuriddin Qoriyev nomi partiyadan o'chiriladi va uning siyosiy faoliyatiga chek qo'yiladi. OGPU tomonidan qamoqqa olindi. Unga OGPU kollegiyasining qarori bo'yicha aksilinqilobiy millatchi tashkilot a'zosi degan ayb qo'yildi. 1931-yil 25-apreldan 5 yil muddatga axloq-tuzatish lageriga yuboriladi. Avval, Toshkent qamoqxonasida, keyin Moskvadagi mashhur Butir qamoqxonasida, Temnikov lagerida juda ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechiradi.¹ Shunday qiyinchiliklardan so'ng u partiya boshqaruvi komissiyasi raisi Lazer Kaganovichga xat yozadi:

Partiya nazorati komissiyasi raisi Kaganovich
O'rta Osiyo MIK byurosi kotibi Bauman, Ikromovga
1918-yildan to 1930-yilgacha partiyaning sobiq a'zosi
Qoriyev Nuriddin Xolmirzayevichdan

Ariza

Inqilobning boshidan 1925-yilgacha men Turkiston ASSR ning Sobiq Farg'ona viloyatida partiyaning tashkiliy ishlari bo'yicha, proletariat duktaturasini mustahkamlash, partiyaning har xil mas'uliyatli ishlarida ishlaganman. 1923-

¹ Namangan viloyat davlat arxivi 263-jamg'arma, 1-ro'yxat, -ish, 32-34, 38-39-varoq,

yilgacha bosmachilik harakatlarini tugatish, partiya qurilishi va qishloq xo'jaligining tiklanish frontlarida xizmat qilganman. Bosmachilik harakati tugatilgandan so'ng, 1925-yildan men Markaziy ishga olindim. 1930-yil men kutilmaganda siyosiy o'limga duchor bo'ldim, ya'ni men OGPU organi tomonidan qamoqqa olindim va menga OGPU Kollegiyasining qarori bo'yicha o'tkazilgan aksilinqilobiy millatchi tashkilotning a'zosi degan ayb qo'yildi va 1931-yil 25-apreldan 5 yilga axloq tuzatish lageriga jo'natildim. Meni shu ayb bilan qamoqqa olinishimning sababi shuki, mening 1926-yilgacha bo'lgan ba'zi bir intelligensiyalar bilan shaxsiy tanishchiligimdir.

Menga alam qilgani shuki, men inqilobdan so'ng bor kuchim bilan butun shijoatimni berib, partiya uchun, proletariat diktaturasi uchun xizmat qilib evaziga axloq tuzatish lageriga yuborildim. Men o'zimni bolsheviklar partiyasining tarbiyalanuvchisi deb bilganman va men o'z hayotimni Sovet davlati partiyasi hayoti bilan bog'liq deb hisoblaganman.

Men O'zbekiston SSR MIK kotibi bo'lib ishlaganimda Samarqanda Xidiraliyev bilan bir uyda yashashga to'g'ri kelib qolgan. U SSSRning Rovvoensoveti a'zosi va Respublika boshqaruvchilaridan biri edi. Men u bilan "18 lar" guruhiga kirib qoldim. 1925-yilning dekabrda O'zbekiston SSR MIK kotibligidan bo'shatilib, boshqa ishga jo'natildim.

Natijada men mehnat sinfining partiyaga qarshi ishlariga qiziqib qoldim. "18lar" guruhining tashkiliy ishlari Xidiraliyev va Xodjiboyevlar qo'lida edi. Haqiqatdan ham o'zimning siyosiy xatolarimni tan olaman. Partiya nazorat komissiyasining oily organiga murojaat qilib mendan la'nat tamg'asini olib, partiyadagi ishimni tiklab da'vom ettirishni so'rayman. Men o'zimni partiya idorasida deb hisoblayman va har qanday uchastka fronti va proletariatni himoya qilish ishlarini bajarishga tayyorman.

Lazer Kaganovich minglab bunday xatlardan olgan. Ularni ko'rgan yoki ko'rmaganligi mavhumligicha qolgan. Nuriddin Qoriyev 1934-yil 20-mayda qamoqdan ozod etiladi.

1937-1938-yillarda ommaviy qatag'onlar avj oladi. 1937- yilning may-iyun, ayniqsa so'nggi bir yarim oy davrida, «harbiy-fashistik isyonchilar» otilganidan so'ng bo'lajak ommaviy qatag'on kampaniyasini intensiv rejalashtirish amalga oshiriladi. Yuqorida keltirib o'tgan bir necha qarorlar qabul qilinadi. Ana shu qarorlar asosida 1937-yil 5-avgustdan barcha respublikalar, o'lkalar va viloyatlarda sobiq quloqlar, faol antisovet elementlar va jinoyatchilarni qatag'on qilish bo'yicha operatsiya o'tkaziladigan bo'ldi. Bu operatsiya O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston SSRda 1937-yil 10- avgustdan boshlanadigan bo'ldi. Mana shu mash'um davrda sobiq qatag'on qurboni Nuriddin Qoriyev ham yana qatag'onga uchraydi. 1937- yili unga tuhmat bilan "Xalq dushmani" degan tamg'a bosilib, O'zSSR Ichki Ishlar Xalq komissarligining mash'um "Uchlik" hukmiga binoan 13- noyabrda otib tashlangan. 1956 yilgi XX syezdda ko'tarilgan masalada, ya'ni istiqlol uchun kurashgan, millatni hurriyat va erkinlikka chorlagan, xalqimizning tinch va osuda hayoti uchun tinmay kurashgan hamyurtlarimiz qatori Nuriddin Qoriyev va unga qo'yilgan ayblovlar qayta ko'rib chiqildi, hujjatlar o'rganildi, xizmatlari taroziga solindi.

1958 yil 28 iyulda O'zbekiston Oliy Sudi Qarori bilan Nuriddin Qoriyevning nomi qayta oqlandi. Istiqlol sharofati bilan Nuriddin Qoriyevning xotirasi qayta tiklandi va nomi abadiylashtirildi. Namangan shahrining ko'chalaridan biri uning nomiga qo'yildi. Namangan shahridagi 26-maktabda Nuriddin Qoriyevning hayotiga bag'ishlangan muzey ochildi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 1937-1938-yillardagi “Katta terror” davri Sovet davlati qatagʻon siyosatining kulminatsion nuqtasi boʻldi.

Barcha joylarda boʻlganidek SSSR Ichki ishlar xalq komisari Ejoyning 00447-sonli operativ mutlaqo maxfiy tamgʻa ostidagi 1937 yil 30 iyuldagi «Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa antisovet elementlari» qatagʻon qilish boʻyicha operatsiya oʻtkazish toʻgʻrisidagi buyrugʻi Oʻzbekiston respublikasida tezkorlik bilan bajarildi. Bu ulkan «vazifani» bajarishda respublika, okruglar, rayonlar partiya tashkilotlari, Sovetlarning ijroiya komitetlari, ichki ishlar xalq komissarligi va uning joylardagi sektor va boʻlimlari rahbarlari, xodimlari jonbozlik koʻrsatib faoliyatda boʻldilar. Bu operatsiyani oʻtkazishda koʻplab noqonuniy tadbirlar amalga oshirildi, inson haq-huquqlari mislsiz toptaldi, begunoh yurtdoshlarimizga toʻqima, sohta ayblar qoʻyildi, xilma-xil chaquvlar, toʻhmatlar ishga solindi.

Tergov chogʻida maxbuslar bexad jismoniy, ham ruhiy azobga solingan. Masalan, mahbuslar shavqatsiz qiynoqlarga solinar, kaltaklanar, boshqalar uchun koʻrsatmalar berishga majbur qilinganlar. Ana shunday yoʻl bilan olingan qandaydir koʻrsatmalar asosida yangidan ommaviy qamoqqa olishlar boʻlgan. Koʻp hollarda sud jarayoniga qadar shavqatsiz qiynoqlarga chiday olmagan mahbuslarning oʻlimi sodir boʻlgan. Bunday paytda aybni birovga qoʻyish maqsadida, boshqa duch kelgan kishi olib kelinib jazoga hukm qilinaverilgan.

100-150 kishi bir xonaga xaydab kelib, ularning barchasini yuzlari devorga qaratib qoʻyilgan, bu mahbuslar talab qilinayotgan koʻrsatmalar bergunga qadar oʻtirishga va uxlashga ruxsat berilmagan. Xonaga yozuv stoli va yozuv-chizuv uchun kerakli narsalar qoʻyilgan. Koʻrsatma berishni xoxlaganlar oʻzlari yozib berganlar, shundan keyin ularga uxlash uchun ruxsat berilgan.

Tergovchilar kim koʻp urib pachoqlash boʻyicha oʻzaro musobaqalashganlar. Agar tergovchi kuniga biron bir mahbusni oʻz «aybi»ga iqror qildirishni uddalay olmasa, u aybdor hisoblangan. Ammo qanday usul bilan koʻrsatma olinganiga erishgani bilan qiziqmaganlar.

«Uchlik»ning hukmi bilan minglab odamlarimiz otuvga hukm etildi, hukmlar joylarda tezkorlik bilan ijro etildi, har bir okrugda qatlgohlar, noma'lum qabristonlar paydo bo'ldi. 8-10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan qatag'on qurbonlari uzoq-uzoq yurtlarga-Shimolga, Uzoq Sharqqa, Sibirga, Uralga, Shimoliy Qozog'istonga surgun qilindilar. Ularning katta qismi o'sha begona yurtlarda qamoq azoblariga bardosh bera olmay halok bo'ldilar, juda ham oz qismi keyinchalik ozod bo'lib yurtga qaytdilar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda amalga oshirilgan qatag'onlik siyosatining tub maqsadi va asosiy sabablari quyidagilar edi:

- unchalik katta bo'lmagan muayyan guruhga kirgan shaxslarning hokimiyatni o'z shaxsiy manfaatiga xizmat qildirish uchun yaratilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimini mustahkamlash;
- jamiyatni boshqarishda yo'l qo'yilgan kamchilik va xatolarni o'zga shaxs va guruhlarning zimmasiga yuklash;
- jamiyat a'zolarini qo'rquvda, tobelikda saqlash, ularni manqurtga aylantirish.

Stalin vafotidan keyin butun SSSR da bo'lganidek, O'zbekistonda ham shaxsga sig'inish oqibatlarini tugatish tadbirlari ko'rildi. 1956-yilda KPSS ning XX syezdida N.S.Xruschyov boshliq partiya rahbarligining bir qismi Stalin shaxsiga sig'inishni, nohaq qatag'onlar va rahbarlikning avtoritar usullarini fosh qilib chiqdi. Qatag'on qilinganlar ishini qaytadan ko'rib chiqishga kirishildi. Ko'pgina jinoiy ishlar to'qib chiqarilgani, minglab odamlar nohaq qamalib, ozodlikdan mahrum etilgani aniqlandi va ular oqlandi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa ko'plab yozuvchi va shoirlar oqlandi. Minglab partiya. Sovet, komsomol xodimlari nomlari poklandi. 50-yillarning boshlarida shubha ostiga olingan, har bir qadami nazorat qilinayotgan 60 nafardan ziyod yirik olimlar, adiblardan "millatchi, sovetlarning dushmani" degan yorliqlar olib tashlandi. Tuhmatlardan xalos bo'ldi. Bu davrda O'zbekiston bo'yicha asossiz qatag'on qilinganlardan 40 000 kishi oqlandi. 80-yillarning oxirida yana bir guruh kishilar oqlandi. Lekin ularni oqlash kommunistik mafkura talablari ostida amalga

oshirilib, bu jarayon oxiriga yetkazilmadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin qatag'on qilinganlarning ko'pchiligi huquqiy jihatdan oqlandi.

Yuqorida ta'kidlab o'tgan Prezidentimiz Islom Karimovning qaror va farmonlari, sa'y-harakatlari, amalga oshirgan ko'plab tadbirlari natijasida qatag'on qurbonlarining nomlari oqlandi, xotirasi tiklandi, nomlari abadiylashtirildi. Men ushbu kurs ishida Sovet davlati qatag'on siyosatining O'zbekistondagi mash'um "Katta terror" davrini, uning fojiali, salbiy oqibatlarini, jumladan qatag'on qurboni Nuriddin Qoriyevning hayoti va taqdirini yoritib berishga harakat qildim. . Bu o'rinda ilmiy rahbarim professor Rustambek Shamsutdinovning kitoblari va ko'rsatmalari, arxiv manbalari asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Xalqparvar, fidoyi inson Nuriddin Qoriyevning 5 jilddan iborat shaxsiy fond hujjatlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning bu hujjatlar to'plamida qisqa, lekin ko'p qirrali jangovor hayot yo'li, mehnat jasorati, davlat va partiya ishlarida olib borgan ishlari va tarixiy voqealar yorqin aks etib turgan arab, lotin va o'zbek yozuvlarida bitilgan buyruq va farmoyishlar nusxalari, shaxsiy guvohnomalar, mandatlar, a'zolik biletlari, faxriy yorliqlar, shahodatnomalar, hamda noyob fotosuratlar borki, bu hujjatlar bilan tanishar ekanmiz, sovetlarning qanchalik ikkiyuzlamachi siyosat olib borganiga guvohi bo'lamiz. Sovet hukumati, partiya tomonidan o'ziga yuklatilgan vazifalarni astoydil, sidqidildan bajargan Nuriddin Qoriyevning qismati ham mudhish qatag'onlik bilan yakunlanadi. Istiqlol sharofati bilan Nuriddin Qoriyev to'la oqlandi. Uning xotirasi tiklanib, nomi abadiylashtirildi. Namangan shahridagi ko'chalardan biriga uning nomi berildi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, mana shunday begunoh qurbon bo'lgan insonlar xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori // Xalq so‘zi, 1996-yil 17-dekabr
2. “Qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni // Xalq so‘zi 1999-yil 12-mart
3. “Vatan va xalq ozodligi yo‘lida qurbon bo‘lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori // Xalq so‘zi 1999-yil 22-iyul
4. “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni // Xalq so‘zi 2001-yil 1-may
5. Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: Sharq 1998
6. Karimov I.A Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma‘naviyat 2008
7. Karimov I.A O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - Toshkent: O‘zbekiston 2013
8. Karimov I.A Ona yurtimiz baxt-u iqboli buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. - Toshkent: O‘zbekiston 2015
9. Shamsutdinov R.T. O‘zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning salbiy oqibatlari. - Toshkent: Sharq 2001
10. Shamsutdinov R, Mamajonov A. Shimoliy Kavkaz surgunidagi yurtdoshlar qismati. - Toshkent:Sharq 2005
11. Shamsutdinov R.T. Qatag‘on qurbonlari. II kitob.- Toshkent : Sharq 2007
12. R. Shamsutdinov . Vatan tarixi. – Toshkent: Sharq 2010
13. R.Shamsutdinov. O‘zbekistonda sovetlarning qatag‘on siyosati va uning oqibatlari. I kitob. Toshkent Sharq 2012
14. Shamsutdinov R, Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq 2013
15. Rasulova Lola. “Красный террор” не щадил никого // Наманганская правда. 2010 № 51 - B 5
16. Namangan viloyat davlat arxivi 263-jamg‘arma , 1-ro‘yxat , 1-ish , 6-varoq

17. Namangan viloyat davlat arxivi 263-jamg'arma , 1-ro'yxat , -ish , 32-34, 38-39-
varoq,
18. Namangan viloyat davlat arxivi 263-jamg'arma , 1-ro'yxat , 1-ish , 188-varoq
19. Namangan viloyat davlat arxivi 263-jamg'arma , 1-ro'yxat , 3-ish , 24-varoq
20. Namangan viloyat davlat arxivi 263-jamg'arma , 1-ro'yxat , 3-ish , 25-26-varoq
21. Namangan viloyati o'lkashunoslik muzeyi materiallari
22. Namangan viloyati Xotira muzeyi materiallari va arxiv fondi

Ilovalar

1-ilova



Nuriddin Qoriyev

2-ilova



Ўзбекистон Марказий Ижроия кумитасининг раиси
Йулдош Охунбоев, МИК котиби Нуриддин Қориев (унгда)
ва ншлар мудирини Цигалудзе (чапда)

3-ilova



4-ilova



Фотосуръатчи чандан унга Кориев рафикаси
Кориева Ш.А, уй хизматкори, угли Насимжон,
ва кизи Кориева З.

5-ilova

